2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

YANGI O‘ZBEKISTON

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 212 (1811), 2026-yil 14-oktabr, chorshanba

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

YAYLOVLARNING TABIIY HOLATINI SAQLASH VA UNUMLI FOYDALANISHGA E’TIBOR QARATILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev yaylovlar degradatsiyasining oldini olish, suv ta’minotini yaxshilash hamda ulardan samarali foydalanish yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Mamlakatimizda 21 million 255 ming gektar yaylov mavjud, biroq ularning atigi 40 foizidan samarali foydalanilmoqda. Davlatimiz rahbari ushbu katta imkoniyatni to‘liq ishga solish yurtimiz oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda favqulodda muhim ekanini ko‘rsatib o‘tdi.

Yaqinda yaylovlardan samarali foydalanish bo‘yicha imzolangan Prezident qarori ijrosini tashkil etish vazifalari belgilab olindi. Hokimlar oldiga yil yakunigacha 620 ming gektar, kelgusi yilda 3 million 700 ming gektar yaylovni qayta tiklash va hosildorligini oshirish vazifasi qo‘yildi. Ular Chorvachilik va yaylov xo‘jaligini rivojlantirish agentligi bilan bir oy muddatda degradatsiyaga uchragan maydonlarni joriy yilda 10 foizga, kelasi yili 20 foizga qisqartirish bo‘yicha kompleks dasturlarni tasdiqlaydi.

Navoiy viloyatida mahalliy byudjetdan ajratilgan 30 milliard so‘m hisobiga “Kengsoy” nasos stansiyasi rekonstruksiya qilinib, 20 ming gektar yaylov o‘zlashtirilmoqda. Bu imkoniyatdan foydalanib, 11 ta tadbirkor suv havzalari qurish va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyasini joriy etishga kirishgan. Natijada ushbu maydonlarda 60 ming bosh qoramol uchun yiliga 250 ming tonna ozuqa yetishtirish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Qashqadaryo viloyatining Nishon tumanida esa 1 ming 332 gektar yaylovda pivot sug‘orish tizimi joriy etilib, mahalliy sharoitga mos yangi ozuqabop o‘simliklar ekilmoqda. Ushbu tajribani Muborak va Dehqonobod tumanlarida ham yo‘lga qo‘yish, shuningdek, bir yil ichida jami 9,4 ming gektar urug‘chilik maydonini tashkil etish topshirildi.

Yaylovlarni suv bilan ta’minlash uchun moliya-viy manbalar ham belgilandi. Yaylovlar ijarasidan tushadigan mablag‘lar hududiy yaylov xo‘jaliklari ixtiyorida qoldiriladi. Ushbu mablag‘lar hisobidan qo‘shimcha 448 ta quduq qazilib, kelgusi yilda 1,5 million gektar yaylovning suv ta’minoti yaxshilanadi. Yil yakunigacha 1 ming 600 ta quduq ta’mirlanadi.

Qolaversa, byudjetdan ajratilgan 100 milliard so‘m hisobidan joriy yilda 161 ta, 2027 va 2028-yillarda 81 tadan — jami 323 ta sug‘orish inshooti barpo etiladi. Bu 969 ming gektar yaylovni tiklash imkonini beradi.

Yaylovlardan uzoq yillardan buyon foydalanib kelayotgan chorvadorlarning huquqlarini ras-miylashtirish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Hozir 260 ming bosh chorva boqilayotgan 623 ming gektar yaylovni amaldagi foydalanuvchilar nomiga rasmiylashtirish uchun tegishli komissiyaning vakolati yil oxirigacha uzaytiriladi.

Olis hududlardagi aholi o‘z xonadonlaridagi chorvani o‘tlatishi uchun jamoat yaylovlari tashkil etiladi. Yil yakunigacha 470 ta mahallaga 627 ming gektar yaylov 49 yilga bepul ijaraga beriladi. Ushbu maydonlar soliqdan ozod qilinadi.

Yangi tartibga ko‘ra, yaylov yerlarining toifasini o‘zgartirmasdan chorvachilik komplekslari qurishga ruxsat beriladi. Bu jarayonda yer uchastkalarining boshlang‘ich narxi va yer solig‘i qishloq xo‘jaligi yerlari kabi hisoblanadi. Navoiy, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida jami 130 gektar maydonda 55 ming boshdan ortiq chorvaga mo‘ljallangan 15 ta kompleks qurilishi belgilandi.

Yaylovlardan faqat chorva boqish uchun emas, balki ekoturizm, asalarichilik, dorivor o‘simliklar yetishtirish, ko‘chatchilik, ovchilik va pillachilik yo‘nalishlarida ham foydalanish muhim ekani qayd etildi. Shu sababli yaylovlarni mazkur faoliyat turlari uchun ham ijaraga berishga ruxsat etiladi. Bunday loyihalarni amalga oshirishda yaylovlarning tabiiy holatini saqlash va ularning qayta tiklanishini ta’minlash muhimligi ta’kidlandi.

Mutasaddilarga yaylovlarni tiklash, suv va ozuqa bazasini mustahkamlash, aholi hamda tadbirkorlar uchun belgilangan yangi imkoniyatlarni joylarda amalga oshirish yuzasidan topshiriqlar berildi.

O‘zA

ISSIQXONALAR “YASHIL” TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA EKOLOGIK XAVFSIZ FAOLIYAT YURITADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev 13-oktabr kuni issiqxonalar faoliyatiga “yashil” texnologiyalarni joriy qilish va ularning ekologik xavfsiz faoliyat yuritishini ta’minlash yuzasidan taqdimot bilan tanishdi.

Avvalo, Toshkent shahri va unga tutash hududlardagi issiqxonalar holati tahlil qilindi. O‘tgan yili maxsus komissiya tomonidan issiqxonalar xatlovdan o‘tkazilib, muayyan qismiga ekologik toza energiya manbalariga o‘tishiga ko‘maklashildi. Shu bilan birga, ayrim xo‘jaliklarda hali ham ko‘mirdan foydalanilmoqda.

Kuz-qish oylarida shamol sustlashishi va harorat inversiyasi tufayli issiqxonalardan chiqadigan tashlamalar poytaxt va uning atrofida to‘planishi mumkin.

Shu bois, Toshkent shahri va unga tutash beshta tumanda issiqxonalar uchun “yashil” texnologiyalarga asoslangan maxsus ekologik tartib joriy etish taklif qilindi. Isitishda tabiiy gaz, elektr, geotermal va quyosh energiyasi, shuningdek, issiqlik elektr stansiyalarining ikkilamchi issiqligidan foydalanishga ruxsat beriladi. Shina, plastmassa, bitum, mazut, ishlatilgan moy va chiqindilarni yoqishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Qattiq yoqilg‘ida ishlayotgan issiqxonalarga joriy yil 1-dekabrga qadar ushbu manbalarga o‘tish taklif qilinadi. Yoqilg‘ini yopiq joyda saqlash, avtomatlashtirilgan qozonlar va samarali chang-gaz tozalash uskunalari o‘rnatilgan bo‘lishi, kul va shlakni xavfsiz yig‘ish uchun sharoit, zaxira generatori mavjudligi, tutun mo‘risi minimal balandlik me’yoriga muvofiqligi kabi qat’iy texnik talablarga mos bo‘lgan issiqxonalargagina qattiq yoqilg‘idan foydalanishga ruxsat berilishi mumkin.

Joriy yil 15-oktabrdan kelgusi yil 15-martga qadar issiqxonalarda doimiy ekologik monitoring olib boriladi. Unda chang-gaz tozalash uskunalarining ishlashi, havoga chiqarilayotgan tashlamalar miqdori va yoqilg‘i turlariga qo‘yilgan talablarga rioya etilishi nazorat qilinadi. O‘lchov uskunalari va videokuzatuv vositalaridan olinadigan ma’lumotlar Ekologiya qo‘mitasining axborot tizimiga real vaqt rejimida uzatiladi. Monitoringda dronlardan foydalaniladi, jamoatchilik nazorati vakillari ham ishtirok etadi.

Chang-gaz tozalash uskunalari o‘rnatilmagani, tashlamalar me’yordan oshgani yoki taqiqlangan yoqilg‘i ishlatilgani aniqlansa, belgilangan tartibda ta’sir choralari qo‘llaniladi. Zarur hollarda issiqxona faoliyati to‘xtatiladi.

Davomi 2-betda

DAVLATIMIZ RAHBARI OHICHK SAMMITIDA ISHTIROK ETADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Ozarbayjon Respublikasi Prezidenti Ilhom Aliyevning taklifiga binoan 14-15-oktabr kunlari amaliy tashrif bilan ushbu mamlakatda bo‘ladi.

Mamlakatimiz yetakchisi Boku shahrida bo‘lib o‘tadigan Osiyoda hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengashning yettinchi sammitida ishtirok etadi.

Ozarbayjon raisligida o‘tkaziladigan forum kun tartibidan Osiyo qit’asida ishonch, tinchlik va xavfsizlikni mustahkamlash hamda Kengashning institutsional rivojlanishini yanada takomillashtirishga oid dolzarb masalalar o‘rin olgan.

Transport bog‘liqligini rivojlantirish, raqamlashtirish, barqaror iqtisodiy o‘sish va boshqa ustuvor yo‘nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish istiqbollari ko‘rib chiqiladi.

Ishtirokchilar mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashadilar.

Tadbir yakunlari bo‘yicha Boku deklaratsiyasi hamda Tashkilotning roli va samaradorligini oshirishga qaratilgan qarorlar to‘plamini qabul qilish rejalashtirilgan.

Sammit doirasida Prezident Shavkat Mirziyoyev xorijiy delegatsiyalar rahbarlari bilan qator ikki tomonlama uchrashuvlar o‘tkazadi.

Ta’kidlash joiz, OHICHK Osiyoda hamkorlikni mustahkamlash, tinchlik, xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashga qaratilgan xalqaro forum hisoblanadi. Hozirgi vaqtda Kengash qit’a hududi va aholisining qariyb 90 foizini tashkil etuvchi 28 ta davlatni birlashtirgan.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

ROBOTOTEXNIKA BO‘YICHA XALQARO MUSOBAQA G‘OLIBLARI VA ULARNING MURABBIYLARINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDAA

O‘zining yuksak intellektual salohiyati, professional mahorati hamda zamonaviy muhandislik sohasidagi chuqur bilim va malakasini yaqqol namoyon etib, Koreya Respublikasining Inchxon shahrida o‘tkazilgan “FIRST Global Challenge” xalqaro robototexnika musobaqasida dunyoning 190 ga yaqin mamlakatidan kelgan iqtidorli yoshlar o‘rtasida rekord natijaga erishib, tom ma’noda tarixiy g‘alabani qo‘lga kiritgani va jahon chempioni degan ulkan sharafli nomga sazovor bo‘lgani, shu tariqa Yangi O‘zbekistonning xalqaro obro‘-e’tibori va nufuzini oshirishga munosib hissa qo‘shgani, yosh avlodni ilm-fan, ilg‘or texnologiyalar, ixtiro va innovasiyalarga keng jalb etish, ularning qalbida Vatanga muhabbat va sadoqat, milliy g‘urur tuyg‘ularini kamol toptirish borasida alohida namuna ko‘rsatib kelayotgani uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Sodiq xizmatlari uchun” medali bilan

Bo‘taxonov Ziyodulla Zoyirjon o‘g‘li — Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi bosh murabbiysi

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Salomov Ibroxim Uktamovich — Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi sardori

Abdujabborov Abdullox Abdug‘ofur o‘g‘li — Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi texnik murabbiysi

Akbarov Shoxruxbek A’zamjon o‘g‘li — Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Kosimov Akbarshox Anvar o‘g‘li — Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Miraxmedov Ayubxon Anvar o‘g‘li — Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Pardayev Umarbek Sherzod o‘g‘li — Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Sodiqov Shukrullo Sherali o‘g‘li — Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Teshabayev Maxkambek — Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Teshabayeva Safina — Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi menejeri

Tojiqo‘ziyev Jasurbek Rustamjon o‘g‘li — Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Urmanov Baxodir Doniyorovich — Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Urmanov Xondamir Doniyorovich — Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi a’zosi

Yusupxo‘jayev Hasanxon Alisher o‘g‘li — Robototexnika bo‘yicha O‘zbekiston terma jamoasi menejeri

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2026-yil 13-oktabr

INSON QADRI, QONUN USTUVORLIGI VA ADOLAT
YANGI O‘ZBEKISTONNING MUSTAHKAM HUQUQIY USTUNLARI

Beshinchi milliy dastur sharhi

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda huquqiy demokratik davlat barpo etish, inson qadrini ulug‘lash, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta’minlashga qaratilgan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O‘zbekiston sharoitida sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli himoya qilish hamda odil sudlovga erishish imkoniyatlarini kengaytirish borasidagi yangilanishlar tobora chuqurlashib bormoqda.



Yangilangan Konstitutsiya asosida inson manfaatlarining ustuvorligini ta’minlash, konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarning ta’sirchan kafolatlarini kuchaytirishga alohida e’tibor qaratildi. Ayni paytda “Odil sudlov — 2030” strategiyasida sud-huquq islohotlarini yangi bosqichga olib chiqish, xalqchil, mustaqil va adolatli sud tizimini shakllantirish uchun yangi vazifalar belgilab berildi.

Mustaqillik falsafasi

O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot O‘zbekiston uchun davlatchilikni mus-tahkamlash, jamiyatni yangilash va inson manfaatlarini davlat siyosati markaziga olib chiqish davri bo‘ldi. Mustaqillikning mazmun-mohiyati, avvalo, insonning o‘z yurtida erkin va munosib yashashi, huquq va erkinliklaridan amalda foydalanishi, qadr-qimmati davlat tomonidan hurmat qilinishi va himoya qilinishida namoyon bo‘ladi.

Shu ma’noda, mamlakatimizning 35 yillik taraqqiyot yo‘li bir muhim haqiqatni tasdiqladi: barqaror rivojlanish, inson qadri va jamiyatdagi ishonch qonun ustuvorligi hamda samarali sud himoyasisiz to‘liq ta’minlanmaydi. Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchini ro‘yobga chiqarishda esa konstitutsiyaviy nazorat alohida o‘rin tutadi.

Prezidentimiz O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda mustaqillikning buyuk ahamiyati, eng avvalo, inson qadri va erkin hayotida namoyon bo‘lishini ta’kidladi. Shuningdek, islohotlarning dastlabki kunlaridan “Inson qadri uchun” g‘oyasi davlat siyosatining markaziga olib chiqildi.


Davomi 3-betda

ANIQLIK, MANTIQ VA UYG‘UNLIKKA ASOSLANGAN TAFAKKUR

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti direktori, akademik O‘tkir ROZIQOV bilan “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbati

Bizning suhbat

Davlatimiz rahbari Prezidentlik faoliyatining dastlabki kunlarida O‘zbekiston Fanlar akademiyasi a’zolari bilan uchrashib, fan va ta’lim oldida turgan vazifalarni o‘rtaga tashlagan hamda ilm-fan sohasiga e’tiborni kuchaytirish to‘g‘risida topshiriqlar bergan edi. Shundan so‘ng mamlakatimizda ilm-fan va ta’limni zamonaviy talablarga javob beradigan darajaga olib chiqishga qaratilgan qator me’yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Prezidentimiz tashabbusi bilan Matematika instituti uchun yangi, zamonaviy, innovatsion bino qurib berildi. Ushbu fanni rivojlantirish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ko‘rildi.



Bugun raqamlashtirish va sun’iy intellekt davriga qadam qo‘yayotgan jamiyat uchun matematikaning ahamiyati yanada ortmoqda. Katta ma’lumotlar oqimini tahlil qilish, murakkab tizimlarni boshqarish, iqtisodiy jarayonlarni prognozlash, axborot xavfsizligini ta’minlash, yangi texnologiyalarni yaratish — bularning barchasida matematik tafakkur va fundamental matematik bilimga ega yangi avlod kadrlari salohiyatiga tayaniladi.

Davomi 5-betda

O‘zbekiston OHICHKning ta’sischi davlatlaridan biri sifatida tashkilot faoliyatida faol ishtirok etib kelmoqda. Ayniqsa, 2017-yildan keyin mamlakatimizning ushbu tashkilot faoliyatidagi o‘rni yanada ortdi.

YANGI O‘ZBEKISTON

2026-yil 14-oktabr, 212-son

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

ISSIQXONALAR “YASHIL” TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA EKOLOGIK XAVFSIZ FAOLIYAT YURITADI

Boshlanishi 1-betda

Issiqxona xo‘jaliklarining yangi talablarga moslashishi uchun moliyaviy ko‘mak choralari ishlab chiqilgan. Ekologik va energiya tejamkor uskunalarni o‘rnatishga har gektar uchun 50 million so‘mgacha subsidiya, yetti yil muddatga 3 milliard so‘mgacha imtiyozli kredit ajratish taklif etildi. Monitoring uskunalarini xarid qilish va o‘rnatish xarajatlarini yengillashtirish ham nazarda tutilgan.

Shaxsiy tomorqalardagi issiqxonalarni yangilashga ko‘maklashish bo‘yicha alohida takliflar tayyorlangan.

Xususan, 2030-yilgacha yer va mol-mulk soliqlarini 50 foizga kamaytirish, aylanmadan olinadigan soliqdan ozod qilish hamda energiya tejamkor tizimlar iste’mol qilgan elektr energiyasi xarajatining yarmini qoplash taklif etilmoqda. Toshkent shahri va unga tutash hududlardagi xonadonlarga “yashil” energiya manbalari va samarali uskunalarni joriy etish uchun 100 million so‘mgacha grant ajratish masalasi ham ko‘rib chiqildi. Yangi “yashil” issiqxona qurishga 300 million so‘mgacha, mavjudini qayta jihozlashga 150 million so‘mgacha imtiyozli kredit berish nazarda tutilmoqda. Issiqxonachilikka ixtisoslashgan 50 ta mahallada ehtiyojmand oilalar uchun ekologik xavfsiz issiqxonalar tashkil etish rejalashtirilgan.

Issiqxonalarda hosil bo‘ladigan ifloslangan drenaj va filtr suvlarini yig‘ish, tozalash hamda qayta ishlatish masalasi ham ko‘tarildi. Buning uchun maxsus operator faoliyatini yo‘lga qo‘yish va Ohangaron tumanida zarur infratuzilmani tashkil etish taklif qilindi.

Taqdimotda iqlimi qulay hududlarda zamonaviy issiqxonachilikni rivojlantirish imkoniyatlari ham ko‘rib chiqildi. Sherobod tumanidagi “Surxon-Agro” erkin iqtisodiy zonasiga 940 gektar yer ajratilgan va uning master rejasi ishlab chiqilgan. Zonada issiqxonalar va agrologistika obyektlarini barpo etish, shu jumladan, banklar balansidagi issiqxonalarni bu yerga ko‘chirish taklif etildi.

Erkin iqtisodiy zonada investorlar uchun yer ijarasiga besh yil davomida nol stavka qo‘llanilmoqda, kanalizatsiya va yer osti suvlari bilan bog‘liq to‘lovlar bo‘yicha uch yillik imtiyoz berilgan. Qo‘shimcha ravishda yer uchastkalarini normativ qiymatining 10 foizi miqdoridagi boshlang‘ich narx bilan auksionga chiqarish, qiymati 10 million dollardan yuqori bo‘lgan loyihalar hamda Toshkent shahri va viloyatidan issiqxonalarini ko‘chiradigan tadbirkorlar uchun esa ushbu ko‘rsatkichni 1 foiz etib belgilash taklif qilindi.

Shuningdek, zona ishtirokchilarini besh yilga yer, mol-mulk va foyda soliqlaridan, olib kelinadigan issiqxona uskunalarini bojxona bojidan ozod qilish taklifi ko‘rib chiqildi. 400 gektar maydonda issiqxonalar va agrologistika obyektlarini barpo etib, investorlarga tayyor loyiha sifatida sotish rejalashtirilmoqda. Infratuzilmaga 220 milliard so‘m, loyihalarni moliyalashtirishga 200 milliard so‘m yo‘naltirish hamda 2027-yilda 100 million dollar investitsiya jalb etish vazifasi qo‘yildi.

Mutasaddilarga issiqxonalarning joylashuvi, energiya resurslari manbalari va ularni yetkazib berish hajmini aks ettiruvchi raqamli xaritani tayyorlash topshirildi. Shuningdek, issiqxona mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda sotish imkoniyatlarini kengaytirish bo‘yicha choralar ishlab chiqiladi.

O‘zA

OHICHKNING BOKU SAMMITI MINTAQAVIY HAMKORLIK VA KELGUSI TARAQQIYOT ISTIQBOLLARINI BELGILAYDI

O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14–15-oktabr kunlari amaliy tashrif bilan Ozarbayjonda bo‘ladi va Boku shahrida o‘tkaziladigan Osiyoda o‘zaro hamkorlik va ishonch choralari bo‘yicha kengash (OHICHK)ning navbatdagi sammitida ishtirok etadi.

O‘zbekiston OHICHKning ta’sischi davlatlaridan biri sifatida tashkilot faoliyatida faol ishtirok etib kelmoqda. Ayniqsa, 2017-yildan keyin mamlakatimizning ushbu tashkilot faoliyatidagi o‘rni yanada ortdi.

OHICHKning 2019-yilda Dushanbe, 2022-yilda esa Ostona shaharlarida o‘tkazilgan sammitlarida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yuzaga kelayotgan yangi geosiyosiy voqeliklarni hisobga olish, mintaqaviy xavfsizlikni mustahkamlash va iqtisodiy aloqalarni kengaytirish borasida qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Mazkur uchrashuvlarda bildirilgan taklif va tashabbuslar tashkilotning kelgusi rivojlanish yo‘nalishlarini belgilash, Osiyoda tinchlik, xavfsizlik va barqaror taraqqiyotni ta’minlash borasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

OHICHKni tashkil etish tashabbusi 1992-yil 5-oktabr kuni BMT Bosh Assambleyasining 47-sessiyasida ilgari surilgan. Undan ko‘zlangan asosiy maqsad Osiyoda xavfsizlikni ta’minlash bo‘yicha umumiy yondashuvlarni ishlab chiqish va davlatlar o‘rtasida ishonch muhitini shakllantirishdan iborat bo‘lgan. O‘tgan davr mobaynida tashkilot bosqichma-bosqich rivojlanib, xavfsizlik, iqtisodiyot, ekologiya va gumanitar hamkorlik bo‘yicha mintaqaviy muloqot maydoniga aylandi.

Bugungi kunda OHICHKga 28 ta davlat a’zo. Tashkilot BMT, YXHT, SHHT va boshqa xalqaro tuzilmalar bilan munosabatlarni rivojlantirish borasida keng ko‘lamdagi sa’y-harakatlarni amalga oshirib kelmoqda.

So‘nggi yillarda Osiyo xalqaro siyosat va jahon iqtisodiyotining muhim markazlaridan biriga aylanmoqda. Mintaqada geosiyosiy raqobat kuchayishi, qurolli mojarolar, terrorizm, transmilliy jinoyatchilik, iqlim o‘zgarishi, suv va oziq-ovqat xavfsizligi, raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq yangi tahdidlar davlatlar o‘rtasidagi hamkorlikni yanada kengaytirishni taqozo qilmoqda.

Bunday sharoitda OHICHKning ahamiyati yanada ortadi. Tashkilot siyosiy muloqotni rivojlantirish, o‘zaro ishonchni mustahkamlash va umumiy muammolarni tinch yo‘l bilan hal etish bo‘yicha muhim tashabbuslarni ilgari surmoqda.

Bokudagi sammitning asosiy ahamiyati shundaki, u tashkilotning kelgusi maqomi va imkoniyatlarini belgilashga xizmat qiladi. Xususan, OHICHKni to‘laqonli xalqaro tashkilotga aylantirish, huquqiy asoslarini mustahkamlash hamda sheriklikning amaliy natijalarini kengaytirish sammit kun tartibining muhim yo‘nalishlaridir.

Dunyodagi mavjud murakkab geosiyosiy vaziyat sharoitida har tomonlama samarali qarorlar qabul qilish alohida ahamiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, Boku sammiti davlatlar o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash va OHICHKning zamonaviy tahdidlarga o‘z vaqtida va munosib javob berishida juda muhim.

Ozarbayjonning 2024-2026-yillardagi raisligi davrida ushbu jarayonga alohida e’tibor qaratilmoqda. Boku tomonidan ilgari surilgan “Kuchli OHICHK: Osiyoda o‘zaro bog‘liqlik, raqamlashtirish va barqaror o‘sish” shiori tashkilotning kelgusi rivojlanish ustuvorliklarini ifodalaydi.

Osiyoda xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlash faqat siyosiy kelishuvlar bilan cheklanmaydi. Davlatlar o‘rtasida savdo, investitsiya, transport va texnologik aloqalar rivojlanishi ham mintaqaviy barqarorlikning muhim omilidir. Shu ma’noda, Ozarbayjon raisligi davrida transport bog‘liqligi va raqamlashtirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston 2022-yilda Ostonada o‘tkazilgan sammitda Afg‘oniston bo‘yicha yuqori darajali xalqaro muzokaralar guruhini tashkil etish, “Avlodlar muloqoti” formatini yo‘lga qo‘yish va transport bog‘liqligini rivojlantirish tashabbuslarini ilgari surdi.

Davlatimiz rahbarining raqamlashtirish va innovatsiyalar sohasida hamkorlikni kengaytirish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash hamda “Yashil Osiyo” dasturi doirasida muntazam ekspertlar maslahatlashuvlarini o‘tkazish kabi tashabbuslari ham katta qiziqish uyg‘otdi.

2023-yil oktabr oyida Samarqandda OHICHK Yoshlar kengashi yig‘ilishi doirasida “Avlodlar muloqoti” ilk bor o‘tkazilgani ushbu takliflarning amaliy mazmun kasb etayotganini ko‘rsatdi.

O‘zbekistonning OHICHK doirasidagi ustuvor manfaatlari, avvalo, Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni ta’minlash, Afg‘oniston masalasi bo‘yicha muloqotni rivojlantirish, transport-tranzit imkoniyatlarini kengaytirish, oziq-ovqat va ekologik xavfsizlikni mustahkamlash hamda raqamli texnologiyalar sohasida hamkorlikni kengaytirish bilan bog‘liq.

Shu nuqtai nazardan, Boku sammiti O‘zbekiston uchun milliy va mintaqaviy manfaatlarga mos tashabbuslarni ilgari surish, hamkor davlatlar bilan amaliy kelishuvlarga erishish hamda OHICHKning tizimli rivojlanishida faol ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

2027-yilda Toshkentda OHICHKning inson huquqlari va sun’iy intellekt masalalariga bag‘ishlangan yuqori darajali forumini o‘tkazish rejasi mamlakatimiz inson manfaatlariga yo‘naltirilgan tashabbuslarni rivojlantirayotganidan dalolatdir.

Mazkur tashabbusni inson huquqlarini himoya qilish, sun’iy intellektdan xavfsiz va maqsadli foydalanish hamda inklyuziv raqamli taraqqiyotni ta’minlash bo‘yicha mintaqaviy muloqotni kuchaytirishning samarali vositasi sifatida takomillashtirish mumkin.

Boku sammitida O‘zbekiston uchun eng maqbul yondashuv OHICHKning tashkiliy-huquqiy transformatsiyasini qo‘llab-quvvatlash va uning amaliy natijasiga ustuvor ahamiyat qaratishdir. Buning uchun transport, raqamlashtirish, inson huquqlari, yoshlar siyosati va ekologik xavfsizlik sohalaridagi hamkorlikni aniq loyihalar, ekspertlar muloqoti va muntazam tajriba almashish mexanizmlari bilan boyitish muhim.

OHICHKning Bokuda bo‘lib o‘tadigan sammiti Osiyoda ko‘p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish va tashkilotning kelgusi taraqqiyot yo‘nalishlarini belgilash nuqtai nazaridan muhim siyosiy voqeadir.

Sammitning natijadorligi, avvalo, tashkilotni transformatsiya qilish bo‘yicha aniq kelishuvlarga erishish, uning huquqiy va institutsional asoslarini mustahkamlash hamda hamkorlikni amaliy loyihalar bilan boyitishga bog‘liq.

O‘zbekiston uchun ushbu sammit mintaqaviy xavfsizlikni ta’minlash, transport-tranzit imkoniyatlarini kengaytirish, raqamli va ekologik hamkorlikni rivojlantirish hamda inson manfaatlariga yo‘naltirilgan tashabbuslarni ilgari surish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng muhimi, OHICHKning kelgusi rivoji davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonchni mustahkamlash bilan birga uni aniq amaliy natijalarga ega bo‘lgan samarali mintaqaviy hamkorlik mexanizmiga aylantirishga xizmat qilishi lozim.

“Dunyo” AA

YANGI TOSHKENT – YIRIK IQTISODIY MARKAZ, KENG IMKONIYATLAR MAYDONI

Azaldan xalqimiz bunyodkorligi, saxovati va mehnatsevarligi bilan tanilgan. Ota-bobolarimiz obod maskanlar barpo etishni nafaqat hunar, balki avlodlar oldidagi burch, yurt oldidagi mas’uliyat deb bilgan.

Munosabat



Bugun Yangi Toshkentda boshlangan ulkan bunyodkorlik ishlari ham ana shu milliy qadriyatlarimizning zamonaviy ifodasidir. Davlatimiz rahbari 12-oktabr kuni Yangi Toshkentga tashrif buyurib, yirik loyihalarni amalga oshirayotgan investor va tadbirkorlar bilan uchrashdi.

Muloqotda mamlakatimiz yetakchisi “Kapitalning, ilg‘or g‘oyaning va halol mehnatning millati yo‘q!” dedi. O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun yangi g‘oya — “O‘Z” falsafasini ilgari surgani meni g‘oyat hayajonga soldi.

“O‘Z” — O‘zbekiston, O‘zgarish, O‘zlik va Mas’uliyat tushunchalarini birlashtirib, taraqqiyotga yangicha yondashuvni ifoda etadi. Zero, o‘zbekona qarashda o‘zimizniki degan so‘z faqat o‘zimizdan chiqqan emas, balki elga, yurtga nafi tekkan, mehnat qilgan insonni anglatadi. Shunday ekan, kimki yurtimizga sarmoya kiritib, zamonaviy texnologiya olib kelsa, odamlarga ish o‘rni ochsa, qaysi mamlakat yoki shahardan kelganidan qat’i nazar, umumiy taraqqiyotga hissa qo‘shadi.

Mamlakatimiz yetakchisi muloqot avvalida Yangi Toshkentda bunyod etilgan inshootlarni ishga tushirish va yangi loyihalar qurilishiga start berish marosimida ishtirok etdi.

Uch yil avval qurilishi boshlangan Yangi Toshkent mamlakatimiz tarixidagi eng yirik shaharsozlik loyihasidir. Xavfsiz va “yashil” shahar sifatida barpo etilayotgan hududda birinchi bosqichning o‘zida zamonaviy texnologik yechimlarga asoslangan 50 milliard dollarlik loyihalarni amalga oshirish ko‘zda tutilgan. O‘tgan davrda bu yerda 2 milliard dollarlik ish bajarildi. Zamonaviy turar joylar, universitetlar, kutubxona va amfiteatr qurildi.

Tantanali marosimda umumiy qiymati 1 milliard dollar bo‘lgan yettita obyekt ishga tushirildi. “Sharq bahori” turar joy majmuasining birinchi bosqichi, yo‘l va infratuzilma obyektlari, “Yangi Toshkent” 1-nimstansiyasi, trigeneratsiya stansiyasi, Savdo-sanoat palatasi binosi, “Sohil bog‘i” istirohat bog‘i hamda 2000 o‘rinli umumta’lim maktabi shular jumlasidan.

Muhimi, ularning barchasi yaxlit bo‘lib, zamonaviy shaharsozlikning yuksak namunasini namoyon etadi. Masalan, trigeneratsiya stansiyasi 100 ming xonadonni markazlashgan tarzda isitib, sovitish tizimi bilan ta’minlaydi. Turkiyaning “MIMSAN” kompaniyasi ishtirokida 73 million dollar investitsiya hisobiga barpo etilgan loyiha elektr energiyasi ham ishlab chiqarish imkoniga ega. Xitoyning “Haocheng Industry Group Limited” kompaniyasi ishtirokida qurilgan nimstansiya va yuqori kuchlanishli elektr tarmoqlari loyihasining qiymati 95 million dollarni tashkil etadi.

Bu yerlarni qariyb 60 yildan buyon bilaman. Lekin oxirgi bor bu tomonlarga yo‘lim tushganiga ancha bo‘lgandi. To‘g‘risi, o‘tgan kuni bu yerga kelib hayratda qoldim. O‘sha paytlarda bu joylar paxta, bug‘doy dalalari edi. Qancha-qancha maktab o‘qituvchilari, o‘quvchilari, talabalar, mahalla ahli ana shu dalalarda paxta terishga majbur edi.

2023-yil mart oyida davlatimiz rahbari tomonidan Yangi Toshkentga tamal toshi qo‘yildi. O‘shanda yangi shahar qurilishi uchun 20 ming gektar yer ajratilishi, Chirchiq va Qorasuv daryolari bo‘yida ko‘p qavatli uylar, maktablar, bog‘lar barpo etilishi, Toshkentning “yashil” belbog‘i mana shu yerdan boshlanishi aytilgan edi. Ayni maqsadda bu yerda quriladigan obyektlarga “yashil bino” standartlari qo‘llanayotir. Bu Yangi Toshkentning haqiqiy “yashil shahar”ga aylanishiga xizmat qiladi.

Davlatimiz rahbarining “Yangi Toshkent — o‘zimizniki!” degan fikriga to‘xtalsak. Haqiqatan, yangi shahar o‘zimizniki. Buning isboti sifatida bir gapni aytib o‘tishim kerak. Bundan qariyb ming yil avval yashab o‘tgan Abdulxoliq G‘ijduvoniy bobomiz tabiatda yetti xil rang bor deya qayd etadi. Unga ko‘ra, musavvir o‘sha ranglardan foydalanib surat chizadi. “Yana bir rang borki, agar o‘sha qo‘shilmasa, asar jozibali chiqmaydi. Bu — mehr-muhabbat rangi”, deydi bobomiz.

Shu ma’noda, Yangi Toshkentdagi muhtasham binolarni ko‘rib, avvalo, quruvchilar, muhandislarning mehrini his etdim. Tom ma’nodagi ma’naviyat, madaniyat, mentalitetni ko‘rdim. Bugun yirik loyihalarning bitishini yurtdoshlarimiz intiqlik bilan kutmoqda. Yangi shaharga o‘z hissasini qo‘shmoqchi bo‘lgan tadbirkorlarga qator qulayliklar, imtiyozlar taqdim etiladi. Yil oxirigacha Yangi Toshkentda 20 ming xonadonni foydalanishga topshirish rejalashtirilmoqda. Bu kamida 70 ming kishi uchun yangi yashash muhitini yaratish degani.

Shuningdek, bu yerda FIFA talablariga javob beradigan 55 ming o‘rinli stadion qurilmoqda. U kelasi yil 20 yoshgacha bo‘lgan futbolchilar o‘rtasidagi jahon chempionatining asosiy arenalaridan biri bo‘ladi.

Prezidentimiz qayd etganidek, Yangi Toshkent zamonaviy biznes, ta’lim, tibbiyot, turizm va xizmat ko‘rsatishni o‘ziga jalb etadigan mustaqil iqtisodiy markazga, butun mamlakat ishbilarmonlari uchun yangi imkoniyat maydoniga aylanadi.

Xushboq RAHIM,
shoir, “Do‘stlik” ordeni sohibi

Xushxabar

7-10-oktabr kunlari Janubiy Koreyaning Incheon shahrida o‘tkazilgan “FIRST Global Challenge-2026” xalqaro musobaqasida O‘zbekiston terma jamoasi 3 ta oltin medal bilan mutlaq chempion bo‘ldi. Ushbu xalqaro robototexnika musobaqasida ishtirokchilarimiz nafaqat zafar quchdi, balki 16 ta o‘yinning barchasida g‘alaba qozonib, 637 ball bilan musobaqa rekordini ham yangiladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

“FIRST GLOBAL CHALLENGE”: o‘zbek yoshlari nafaqat chempion bo‘ldi, balki musobaqa rekordini ham o‘rnatdi

Yoshlarimizning 190 dan ortiq mamlakatning yosh muhandis va ixtirochilari jam bo‘lgan musobaqada bunday tarixiy natijani qo‘lga kiritishi yangi O‘zbekistonning xalqaro obro‘-e’tibori va nufuzini yana bir karra oshirdi.

Keyingi yillarda o‘zbek yoshlari xalqaro maydonlarda har jabhada — sport, ilm-fan, san’at va madaniyat sohalarida ham yuqori o‘rinlarni egallab, e’tirofga sazovor bo‘lmoqda. Yaqindagina Samarqandda bo‘lib o‘tgan 46-jahon shaxmat olimpiadasida shaxmatchilarimizning oltin avlodi chempion bo‘lgani ham shunday yutuqlardan biri. Axir Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk sarkarda, Beruniy, Buxoriy, Ibn Sino singari ilm-fan namoyandalarining avlodlari sport musobaqalari, turli fan olimpiadalarida e’tirof etilishi tabiiy. Ammo o‘zbek yoshlarining zamonaviy texnologiyalar, robototexnika muhandisligi sohasida ham ilg‘or ekani kishini ikki karra xursand qiladi.

Kuni kecha Prezidentimizning farmoniga binoan, terma jamoamiz murabbiysi “Sodiq xizmatlari uchun” medali, uning a’zolari bo‘lmish iqtidorli yoshlar “Kelajak bunyodkori” medali bilan mukofotlangani ham bejiz emas. Ular o‘zlarining yuksak intellektual salohiyati, professional mahorati hamda zamonaviy muhandislik sohasidagi chuqur bilim va malakasi tufayli shunday ehtiromga loyiq ko‘rildi.

Har yili turli davlatlarda tashkil etiladigan “FIRST Global Challenge” xalqaro musobaqasida jamoalar robotlarni loyihalash, yig‘ish va dasturlash orqali belgilangan muhandislik vazifalarini bajaradi. Musobaqadagi topshiriqlar faqat robot loyihalashtirib, yasashdan iborat emas. Bunda yoshlarning fan, texnologiya, muhandislik va matematika sohalaridagi bilimi sinovdan o‘tkaziladi, dunyodagi global muammolarni hal etish amaliy mashg‘uloti bajariladi.

Joriy yilgi musobaqada ishtirokchilar o‘zlari yaratgan robototexnika vositalari orqali o‘rmon yong‘inlarining oldini olish va yong‘indan so‘ng uning asoratlarini bartaraf etish, qayta tiklash bo‘yicha amaliy mashg‘ulotlarni bajardi. Bir so‘z bilan aytganda, musobaqada g‘olib bo‘lish yoshlarimiz uchun oson kechmadi. Ammo zamonaviy bilimlarni mukammal egallagan ahil jamoa bo‘lib harakat qilingani tufayli vazifa a’lo darajada uddalandi.

Bu yutuq zamirida keyingi yillarda yurtimizda ta’lim tizimi, ayniqsa, yoshlarni zamonaviy bilimlar, AT texnologiyalariga o‘qitish borasidagi qator samarali tashabbus va loyihalarning o‘rni bor. Masalan, 2019-yilda ilk bor tashkil etilgan, so‘ngra respublikamiz miqyosida keng tarmoqlariga ega bo‘lgan AT parklar faoliyatining samarasi katta. Ushbu tuzilmalar startap loyihalar yaratish, aholi, ayniqsa, yoshlarning kompyuter texnologiyalari borasidagi bilim-tafakkurini oshirish hamda AT sohani rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashga, kompaniyalar uchun qulay muhit yaratishga, sohaga investitsiya jalb etishga xizmat qilmoqda. “Bir million dasturchi” loyihasi doirasida esa yoshlarga zamonaviy bilim va ko‘nikmalar beruvchi o‘quvlar tashkil etildi.

Keyingi o‘n yillikdagi islohotlar samarasi bugun o‘z mevalarini bermoqda. Aqlan yetuk, jismonan sog‘lom, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarga ega bugungi oltin avlodlarimiz yangi O‘zbekistonni barpo etishda poydevor vazifasini o‘tamoqda.

Yuqoridagi kabi xalqaro musobaqalarda erishilgan g‘alabalar esa mamlakatimizning xalqaro imiji yuksalishi va dunyoning eng kuchli mamlakatlari qatorida tilga olinishiga zamin hozirlaydi.

Sanjar ESHMURODOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Beshinchi milliy dastur — sud mustaqilligini kuchaytirish va qonun ustuvorligini ta’minlashni umumiy qadriyatga aylantirish.



Buyuk o‘zbek yo‘li

INSON QADRI, QONUN USTUVORLIGI VA ADOLAT

YANGI O‘ZBEKISTONNING MUSTAHKAM HUQUQIY USTUNLARI

Beshinchi milliy dastur sharhi



Mirzo Ulug‘bek ABDUSALOMOV,
Konstitutsiyaviy sud raisi,
O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yurist

Boshlanishi 1-betda

Bu yondashuv sud-huquq islohotlarining mazmun-mohiyatini belgilaydi. Zero, islohotlar natijasi nafaqat qabul qilingan hujjatlar yoki institutsional o‘zgarishlar, balki insonning buzilgan huquqini o‘z vaqtida tiklay olishi, xolis sud himoyasidan foydalanishi va davlat organlari faoliyatida qonun ustuvorligini his etishi bilan ham baholanadi.

Aynan shu jihatdan qaraganda, sud-huquq tizimidagi islohotlar yangi O‘zbekiston taraqqiyot modelining muhim va ajralmas qismi sifatida namoyon bo‘ladi. Sud hokimiyatining mustaqilligi, shubhasiz, huquqiy davlatning tayanch shartlaridan. Yangi O‘zbekistonda sud-huquq islohotlari “Inson qadri uchun” tamoyilini huquqiy kafolat va amaliy mexanizmlar bilan ta’minlashga qaratildi. Konstitutsiyaviy sudning vazifasi esa Konstitutsiya ustuvorligini ta’minlash, konstitutsiyaviy qonuniylikni mustahkamlash va o‘z vakolatlari doirasida insonning konstitutsiyaviy huquq va erkinliklarini himoya qilishdan iborat. Shu bois, mamlakatimizda sudni inson huquq va erkinliklarining ishonchli kafolati bo‘lgan mustaqil hokimiyat tarmog‘i sifatida mustahkamlashga alohida e’tibor qaratildi.

Sud-huquq tizimining jadal sur’ati

Mustaqillik yillarida sud-huquq tizimini mustaqil hokimiyat tarmog‘i sifatida shakllantirish, odil sudlovning huquqiy asoslarini yaratish va konstitutsiyaviy nazorat institutini rivojlantirish ishlari bosqichma-bosqich bajarildi. Ayni vaqtda taraqqiyotning har bir bosqichi sud mustaqilligi, odil sudlovga erishish imkoniyati va inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirishni talab qildi. Xususan, fuqarolarning Konstitutsiyaviy sud orqali o‘z huquqlarini himoya qilish imkoniyatlarini kengaytirish zarurati saqlanib keldi.

2017-yildan boshlab sud-huquq sohasidagi islohotlar yangi sur’at va mazmun kasb etdi. Ularning markazida sud hokimiyati mustaqilligini mustahkamlash, sudga murojaat qilish imkoniyatlarini kengaytirish, sudyalar korpusini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirish va inson huquqlarining protsessual kafolatlarini kuchaytirish vazifalari turdi.

Ushbu davrda sud tizimining tashkiliy asoslari qayta ko‘rib chiqildi. Sudyalar oliy kengashi tashkil etildi, ma’muriy sudlar faoliyati yo‘lga qo‘yildi, Oliy sud va Oliy xo‘jalik sudi birlashtirildi. Sud hokimiyatini boshqa davlat organlaridan mustaqil ravishda amalga oshirishning institutsional kafolatlari izchil kuchaytirildi.

Konstitutsiyaviy odil sudlov sohasida ham muhim o‘zgarishlar amalga oshirildi. “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonun konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritishning protsessual asoslarini, Konstitutsiyaviy sud sudyalarining mustaqilligi va daxlsizligi kafolatlarini yanada aniq belgilab berdi.

Ma’muriy sudlarning tashkil etilishi fuqarolar va tadbirkorlarning davlat organlari hamda mansabdor shaxslar qarorlari va harakatlari ustidan sud nazoratini kuchaytirishga xizmat qildi. Bu, o‘z navbatida, davlat organlari faoliyatida qonuniylik va mas’uliyat mezonlarining ahamiyatini oshirdi.

Jinoyat protsessida sud nazoratini kengaytirish, shaxsning huquq va erkinliklarini cheklovchi protsessual choralarni qo‘llashda sud kafolatlarini kuchaytirish ham islohotlarning muhim yo‘nalishi bo‘ldi. Bu choralar inson erkinligi va shaxsiy daxlsizligiga oid konstitutsiyaviy kafolatlarni amaliy mazmun bilan boyitdi.

Sud amaliyotida oqlov hukmlarining paydo bo‘lishi va sud nazorati mexanizmlarining kengayishi ham odil sudlovning inson huquqlarini himoya qilishga qaratilgan mohiyatini kuchaytirdi. Eng muhimi, sud faqat nizoni hal qiluvchi organ emas, balki buzilgan huquqni tiklashning mustaqil huquqiy mexanizmi sifatida namoyon bo‘lmoqda.

“Inson qadri uchun” g‘oyasi va mas’uliyat mezonlari

Davlatimiz rahbari mustaqillikning 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda islohotlarning dastlabki kunlaridan xalqning qalbiga quloq solish va aholi muammolarini hal etish ustuvor maqsad bo‘lganini, “Inson qadri uchun” g‘oyasi davlat siyosatining markaziga olib chiqilganini alohida ta’kidladi.

Bu ezgu g‘oya, ayniqsa, sud-huquq sohasida yaqqol namoyon bo‘ladi. Chunki inson qadrining eng muhim kafolatlaridan biri uning huquqi buzilganida mustaqil va xolis sudga murojaat qilish imkoniyatidir.

Inson qadri tushunchasi, ayniqsa, sud-huquq sohasida juda aniq mazmun kasb etadi: shaxs o‘z huquqi buzilganda samarali himoya vositasiga ega bo‘lishi, uning ishi mustaqil va xolis sud tomonidan ko‘rib chiqilishi, qabul qilingan qaror esa qonuniy, asoslangan va ijro etiladigan bo‘lishi kerak. Shu jihatdan inson qadri sudya faoliyatining ham huquqiy, ham kasbiy mezonidir.

2023-yil 30-aprelda umumxalq referendumida qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson huquqlarini ta’minlashga oid konstitutsiyaviy kafolatlarni sifat jihatidan kuchaytirdi. Unda inson, uning huquq va erkinliklari davlat va jamiyat hayotining markaziy qadriyati sifatida yanada aniq ifoda etildi.

Konstitutsiyamizning 1-moddasida O‘zbekiston — suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekani mustahkamlab qo‘yildi. Huquqiy davlat esa, avvalo, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi, odil sudlov demakdir.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiya inson va davlat o‘rtasidagi munosabatlarga muhim huquqiy qoida kiritdi: inson bilan davlat organlarining o‘zaro munosabatlarida yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin etiladi. Bu prinsip huquqni qo‘llashda inson huquqlari ustuvorligini ta’minlashga xizmat qiladi.

Mazkur jarayonning eng muhim xususiyati shundaki, taraqqiyot markaziga davlat emas, balki inson manfaatlari qo‘yildi. Bu esa ilgari amal qilgan “davlat — jamiyat — inson” tamoyili o‘rniga “inson — jamiyat — davlat” degan mutlaqo yangi konstitutsiyaviy formulaning hayotga tatbiq etilishida o‘z ifodasini topdi. Natijada davlatning inson oldidagi majburiyatlari ko‘lami kengaydi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning yangi konstitutsiyaviy mexanizmlari mustahkamlandi.

Ushbu o‘zgarishlarning siyosiy-huquqiy ahamiyati shundaki, endi davlat organining qarori fuqaro uchun yakuniy xulosa bo‘lmaydi. Davlat organining o‘zi ham sudda qonun mezonlari asosida baholanadigan huquqiy munosabatlar subyektiga aylandi. Bu shunchaki institutsional o‘zgarish emas, balki huquqiy davlatning mohiyatini belgilaydigan fundamental siyosiy masaladir.



Bosh qonunda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash davlatning oliy maqsadi sifatida belgilab qo‘yilgani, huquq va erkinliklarni sud orqali himoya qilish kafolatlari kuchaytirilgani, mustaqil va xolis sudda ish ko‘rilishi huquqining konstitutsiyaviy darajada mustahkamlangani sud hokimiyatining jamiyatdagi rolini yanada oshirdi.

Konstitutsiyaning mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga egaligi, to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishi sudlar va barcha davlat organlari uchun prinsipial ahamiyatga ega. Bu Konstitutsiya normalarini inson huquqlarini himoya qilishda bevosita huquqiy mezon sifatida qo‘llash imkoniyatini mustahkamlaydi. Xususan, 133-moddasi fuqarolar va yuridik shaxslarning konstitutsiyaviy shikoyat bilan murojaat qilish huquqini konstitutsiyaviy darajada mustahkamladi.

Unga ko‘ra, fuqarolar va yuridik shaxslar, agar sud orqali himoya qilishning boshqa barcha vositalaridan foydalanib bo‘lingan bo‘lsa, sudda ko‘rib chiqilishi tugallangan muayyan ishda sud tomonidan o‘ziga nisbatan qo‘llangan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligi to‘g‘risida Konstitutsiyaviy sudga shikoyat bilan murojaat qilishga haqli. Bu institut konstitutsiyaviy nazoratni insonning aniq huquqiy manfaati bilan bevosita bog‘laydi.

Konstitutsiyaviy shikoyat Konstitutsiyaviy sudning umumiy yurisdiksiya sudlari qarorlarini qayta ko‘rib chiqishini anglatmaydi. Konstitutsiyaviy sud o‘z vakolati doirasida ishda qo‘llangan qonunning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshiradi.

Shu jihatdan konstitutsiyaviy shikoyat bir vaqtning o‘zida inson huquqlarini himoya qilish va qonunchilik sifatini oshirishga xizmat qiladigan muhim konstitutsiyaviy-huquqiy mexanizmdir. Konstitutsiyaviy sud qarorlarida shakllanadigan huquqiy pozitsiyalar qonun ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotida Konstitutsiyaning mazmun-mohiyatini to‘g‘ri ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Muhim institutsional qadam

Sud mustaqilligi jamiyatning odil sudlovga ishonchini belgilaydigan asosiy konstitutsiyaviy kafolatlardan. Sudya qaror qabul qilishda faqat Konstitutsiya va qonunga tayanishi, har qanday tashqi ta’sirdan xoli bo‘lishi shart.

Davlatimiz rahbari sud-huquq islohotlariga bag‘ishlangan muloqotlarda sudyalar faoliyatiga aralashuvga yo‘l qo‘ymaslik, odil sudlovning mustaqilligini amalda ta’minlash masalasiga doimiy e’tibor qaratib kelmoqda. Bu talab huquqiy davlatning mazmunidan kelib chiqadi.

Sud mustaqilligi haqida gap ketganda, birinchi navbatda, sudyaning mustaqilligi nazarda tutiladi. Sudyaning mustaqilligi uning mas’uliyatini yanada oshiradi. Mustaqillik va mas’uliyat esa bir-birini to‘ldiradi.

Shu maqsadda sudyalar mustaqilligining huquqiy va tashkiliy kafolatlari kuchaytirildi. Sud faoliyatiga qonunga xilof aralashuv uchun javobgarlik belgilandi. Sudyalarni tanlash va tayinlash mexanizmlari takomillashtirildi.

Sudlar faoliyatiga raqamli texnologiyalarni joriy etish ham odil sudlovning ochiqligi, tezkorligi va qulayligini oshirishga xizmat qilmoqda. Elektron murojaat, ishlarni avtomatik taqsimlash, masofaviy ishtirok va sud axborot tizimlarini rivojlantirish inson omilini kamaytirish va sud xizmatlaridan foydalanishni yengillashtirish imkonini bermoqda.

Konstitutsiyaviy sud faoliyatini raqamlashtirish ham konstitutsiyaviy odil sudlovdan foydalanish imkoniyatini kengaytirishning muhim yo‘nalishidir. Bu jarayonda murojaatlarni elektron qabul qilish, axborotdan foydalanish imkoniyatini oshirish va sud faoliyatining ochiqligini ta’minlashga alohida ahamiyat berilmoqda.

Prezidentimizning 2025-yil 18-dekabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi faoliyatini yanada takomillashtirish va zamonaviy raqamli texnologiyalarni joriy etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni qonun ustuvorligini mutlaq qadriyat sifatida qaror toptirish, inson qadrini davlat siyosatining markaziga qo‘yish va konstitutsiyaviy adolatni amaliy mazmun bilan boyitishga qaratilgan muhim institutsional qadam bo‘ldi.

Farmonning tub mohiyati shundaki, u konstitutsiyaviy odil sudlovni fuqarolarga yanada yaqinlashtirib, murojaat qilish tartibining qulay mexanizmlarini yaratdi. Konstitutsiyaviy sud qarorlarining inson taqdiriga bevosita ta’sirini kuchaytirdi.

Shu ma’noda, ushbu hujjat ijrosi doirasida Konstitutsiyaviy sud va konstitutsiyaviy sud ishlarini yuritishni yagona, zamonaviy va xalqchil yondashuv asosida tartibga soladigan yangi konstitutsiyaviy qonun loyihasi tayyorlandi. Bugun mazkur qonun loyihalari Oliy Majlis palatalari muhokamasida.

Odil sudlovning samaradorligi taraflarning protsessual huquqlari real ta’minlanishi bilan ham bog‘liq. Advokatura institutini mustahkamlash, malakali yuridik yordamdan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va tortishuv prinsipini ta’minlash insonning sud orqali himoyalanish huquqini ro‘yobga chiqarishning muhim shartlaridir.

“Odil sudlov – 2030” strategiyasi va konstitutsiyaviy sudlov

Sud-huquq islohotlarining yangi bosqichini belgilagan muhim hujjatlardan biri Prezidentimizning 2026-yil 14-avgustdagi farmoni bilan tasdiqlangan “Odil sudlov — 2030”: Yangi O‘zbekistonda inson huquqlarini ishonchli himoya qiluvchi xalqchil va adolatli sud tizimini barpo etish strategiyasidir.

Strategiya sud tizimini 2030-yilga qadar rivojlantirishning oltita ustuvor yo‘nalishini qamrab oldi. Unda 57 vazifa, 2026-2028-yillarga mo‘ljallangan Harakatlar dasturida 160 ta aniq chora-tadbir hamda 2030-yilga qadar erishilishi lozim bo‘lgan 33 ta maqsad belgilangan.

Mazkur hujjat avvalgi yillardagi sud-huquq islohotlarini izchil davom ettirib, ularni fuqaro uchun odil sudlovning amaldagi natijasi bilan baholashga yo‘naltirdi.

Strategiyaning markaziy g‘oyasi inson huquqlarini ishonchli himoya qiladigan, xalqchil, adolatli, mustaqil, ochiq va samarali sud tizimini barpo etishdir. Uning oltita ustuni — “xalqchil sud”, “adolat qo‘rg‘oni”, “kafolatlangan adolat”, “adolat posbonlari”, “raqamli odil sudlov” va “xalqaro e’tirof” — sud tizimini rivojlantirishning o‘zaro bog‘liq yo‘nalishlarini belgilab beradi.

Hujjatning muhim ustunlaridan biri — “xalqchil sud” g‘oyasidir. Uning mohiyati fuqaroning sudga ortiqcha ovoragarchiliksiz murojaat qilishi, axborot va raqamli xizmatlardan qulay foydalanishi, sud jarayonining ochiq va tushunarli bo‘lishini ta’minlashdadir.

Harakatlar dasturida sudlar faoliyatining ochiqligini oshirish, jamoatchilik bilan muloqotni takomillashtirish, raqamli xizmatlarni kengaytirish va sudga murojaat qilishda byurokratik to‘siqlarni qisqartirishga qaratilgan choralar nazarda tutilgan.

Bu yerda prinsipial masala shundaki, ochiqlik odil sudlovni ta’minlash va sud mustaqilligining muhim shartidir. Qonun doirasidagi ochiqlik va qarorlarning asoslantirilgani jamoatchilik ishonchini mustahkamlaydi.

Strategiyaga muvofiq, barcha sudda axborot olish, murojaat topshirish va raqamli xizmatlardan foydalanish “yagona darcha” tamoyili asosida ta’minlanishi nazarda tutilgan. Konstitutsiyaviy odil sudlov sohasida ham fuqarolarning murojaat qilish imkoniyatini qulaylashtirish va raqamli yechimlarni kengaytirish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda.

“Adolat qo‘rg‘oni” yo‘nalishi sud hokimiyatining mustaqilligi va xolisligini yanada mustahkamlashga qaratilgan. Konstitutsiyaviy sud uchun bu, eng avvalo, Konstitutsiya ustuvorligini ta’minlash va konstitutsiyaviy nazoratni o‘z vakolatlari doirasida samarali amalga oshirishni anglatadi.

“Kafolatlangan adolat” insonning buzilgan huquqini o‘z vaqtida va samarali tiklashga qaratilgan protsessual mexanizmlarni takomillashtirishni nazarda tutadi. Sud nazoratini kuchaytirish, “asosli gumon” standartini joriy etish kabi choralar shaxs huquqlarining protsessual kafolatlarini kuchaytirishga xizmat qiladi.

“Adolat posbonlari” yo‘nalishida yuksak kasbiy va ma’naviy fazilatlarga ega sudyalar korpusini shakllantirish, ularning bilimi va malakasini muntazam oshirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan.

“Raqamli odil sudlov” sud ish yurituvini raqamlashtirish va zamonaviy texnologiyalar orqali fuqarolar uchun qulay hamda tezkor sud muhokamasi imkoniyatlarini kengaytirishni nazarda tutadi. Konstitutsiyaviy sudda ham raqamli yechimlar, avvalo, konstitutsiyaviy odil sudlovga murojaat qilish imkoniyatini kengaytirish va sud faoliyati haqidagi axborotning ochiqligini oshirishga xizmat qiladi.

“Xalqaro e’tirof” yo‘nalishi inson huquqlari sohasidagi ilg‘or xalqaro standartlarni milliy sud amaliyotiga implementatsiya qilish va sudyalar hamjamiyatining xalqaro hamkorligini faollashtirishni nazarda tutadi. Konstitutsiyaviy sudlar o‘rtasidagi professional muloqot ham huquqiy tajriba almashish va konstitutsiyaviy odil sudlovni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Pirovard maqsad fuqaroda sudga murojaat qilganda uning huquqi qonun asosida xolis va o‘z vaqtida himoya qilinishiga barqaror ishonchni shakllantirishdir.

Barqarorlik kafolati

Davlatimiz rahbari O‘zbekiston mustaqilligining 35 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda “Kelgusi o‘n yillik biz uchun milliy yuksalish davri bo‘ladi”, deya ta’kidlab, inson qadrini yanada yuksaltirishga qaratilgan yettita milliy dastur amalga oshirilishini ma’lum qildi. Ularning beshinchisi sud mustaqilligini ta’minlash va qonun ustuvorligini umumiy qadriyatga aylantirishga qaratilgan.

Bu vazifa sud mustaqilligi va qonun ustuvorligi faqat sud tizimining ichki masalasi emasligini ko‘rsatadi. Qonun ustuvorligi huquqiy aniqlikni, huquqiy aniqlik esa fuqarolar va tadbirkorlarning davlat institutlariga ishonchini ta’minlaydi. Bunday ishonch barqaror taraqqiyotning muhim shartidir.

“Odil sudlov — 2030” strategiyasida belgilangan vazifalar barcha sudlar qatori Konstitutsiyaviy sud zimmasiga ham o‘z vakolatlari doirasida konstitutsiyaviy qonuniylikni mustahkamlash, inson huquqlarining konstitutsiyaviy kafolatlarini ta’minlash va konstitutsiyaviy odil sudlov samaradorligini oshirish bo‘yicha katta mas’uliyat yuklaydi.

Konstitutsiyaviy sud o‘z faoliyatida Konstitutsiya ustuvorligini ta’minlash, vakolatiga kiruvchi normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshirish, konstitutsiyaviy shikoyatlarni qonunda belgilangan tartibda ko‘rib chiqish va o‘z huquqiy pozitsiyasi orqali konstitutsiyaviy qonuniylikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O‘ttiz besh yillik mustaqil taraqqiyot, ayniqsa, so‘nggi o‘n yilda Prezidentimiz rahbarligidagi shiddatli va keng ko‘lamli islohotlar yangi O‘zbekistonni yangi sifat bosqichiga olib chiqdi. Inson qadrini ulug‘lash, ochiq va pragmatik tashqi siyosat, barcha sohalar qatori sud-huquq tizimidagi tub yangilanishlar mamlakatimiz taraqqiyotining yangi qiyofasini belgiladi.

Bugun bu yo‘lning mustahkam huquqiy tayanchi — Konstitutsiya va qonun ustuvorligi, mustaqil sud va ta’sirchan konstitutsiyaviy nazorat. Zero, yangi O‘zbekistonda islohotlarning bosh mezoni ham, oliy maqsadi ham inson qadri va adolatdir.

Oxirgi 10 yillik shiddatli taraqqiyot va izchil islohotlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, adolat, Konstitutsiya va qonun ustuvorligi jamiyatda ishonch hamda barqarorlikning mustahkam huquqiy asosini barpo etadi. Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining galdagi bosqichida ham mustaqil va xolis sud, samarali sud himoyasi hamda ta’sirchan konstitutsiyaviy nazorat inson qadrini ta’minlash va huquqiy davlatni rivojlantirishning muhim kafolatlari bo‘lib qoladi.

PENSIYA ISLOHOTLARI:

Bugunning gapi

FUQAROLAR O‘Z KELAJAGIDAN XAVOTIR OLMASLIGI LOZIM

Bugun ishlayotgan inson ertaga qancha pensiya olishini biladimi? Rasmiy maoshi oshsa, yana bir yil mehnat qilsa yoki shaxsiy hisobvarag‘iga mablag‘ qo‘shsa, kelajakdagi daromadi qanday o‘zgarishini tushuna oladimi? Pensiya jamg‘armasi rahbari sifatida men bu savollarni tizimga ishonchning asosi deb bilaman. Chunki inson o‘zi tushunmagan qoidaga tayanib kelajagini rejalashtira olmaydi.



Murodbek OTAJONOV,
Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi ijro etuvchi direktori

Avvalo, bugun pensiya olayotgan fuqarolarga aniq aytishim kerak: muhokama qilinayotgan takliflar tayinlangan pensiyalarni kamaytirishni yoki hozirgi pensionerlarga yangi yosh talablarini qo‘llashni nazarda tutmaydi. Avval orttirilgan huquqlarni saqlash islohotning asosiy shartidir. Yangi qoidalar, birinchi navbatda, ishlayotgan insonning kelgusi pensiya huquqlari qanday shakllanishiga taalluqli.

Islohotning asosiy maqsadi insonning mehnat hissasi pensiyasida tushunarli aks etishi, kam daromadli fuqaro himoyasiz qolmasligi va tizim o‘z majburiyatlarini uzoq yillar bajara olishidir. Islohot natijasini faqat davlat xarajatlari qancha qisqarishi bilan baholash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Har bir taklifni ko‘rib chiqishda moliyaviy hisob bilan birga fuqaroning hayotiy sharoitini ham e’tiborga olishimiz kerak.

Amaldagi davlat pensiya tizimimiz avlodlar birdamligiga asoslanadi. Bugun ishlayotganlar uchun to‘lanayotgan ijtimoiy soliq asosan hozirgi pensionerlarga yo‘naltiriladi. Yetishmagan mablag‘ davlat byudjetidan qoplanadi. Demak, xodim uchun to‘langan ijtimoiy soliqning hammasi uning nomiga pul sifatida jamlanmaydi. U belgilangan qoidalar asosida kelgusida pensiya olish huquqini shakllantiradi.

“Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq, yoshga doir pensiyaning umumiy shartlari erkaklar uchun 60 yosh va 25 yil staj, ayollar uchun 55 yosh va 20 yil stajdir. Qonunchilikda alohida imtiyozlar ham mavjud. To‘liq stajga ega shaxs pensiyasining tayanch qismi hisobga olinadigan o‘rtacha ish haqining 55 foizidan kelib chiqadi. Talabdan ortiq har bir to‘liq yil uchun shu ish haqining yana bir foizi qo‘shiladi. Staj kamroq, ammo kamida yetti yil bo‘lsa, pensiya mavjud stajga mutanosib hisoblanadi. Bunda belgilangan eng kam kafolatlar va ustamalar ham inobatga olinadi.

Ish haqi oxirgi o‘n yillik mehnat faoliyatidagi eng yuqori natija beradigan ketma-ket besh yildan olinadi. Hisobga qabul qilinadigan maosh pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining o‘n ikki baravari bilan cheklangan. Staj pensiyaga ta’sir qiladi. Ammo butun mehnat davrida to‘langan mablag‘ bilan keyingi pensiya o‘rtasidagi bog‘liqlik to‘liq emas.

Masalan, bir inson ko‘p yil yuqori rasmiy maosh olib, keyin kamroq haq to‘lanadigan ishga o‘tishi mumkin. Boshqasi mehnat faoliyatining faqat oxirida yuqori maosh oladi. Tanlangan qisqa davr ularning butun mehnat hayoti davomidagi hissasini bir xil aniqlikda ko‘rsatmaydi. Ish haqining belgilangan chegaradan ortiq qismi ham davlat pensiyasini oshirmaydi. Shunday sharoitda fuqaroning “ko‘proq rasmiy daromad ko‘rsatish kelajagimga qanchalik ta’sir qiladi?” degan savoliga aniq javob bera olishimiz kerak.

Raqamlar bizga nimani ko‘rsatmoqda?

Tizimdagi holatni bir necha raqam orqali ko‘rish mumkin. Mamlakatimizdagi pensionerlar soni 4,3 million, iqtisodiy faol aholi 15,7 million bo‘lib, shundan 8,6 million nafari rasmiy band. Bir pensionerga taxminan ikki nafar rasmiy ishlovchi to‘g‘ri keladi. Bu raqamlar mehnat bozoridagi katta salohiyat hali pensiya huquqlariga to‘liq aylanmayotganini ko‘rsatadi.



To‘liq bo‘lmagan staj ham shu holatning natijasidir. Tahlillarga ko‘ra, 2025-yilda yangi tayinlangan pensiyalar orasida to‘liq stajga ega bo‘lmaganlar ulushi 61 foizga yetgan. Buni barcha pensionerlarga nisbatan qo‘llash to‘g‘ri emas. Lekin ushbu ko‘rsatkich yangi avlod qanday mehnat tarixi bilan pensiyaga kelayotganini anglatadi. O‘zini o‘zi band qilganlar orasida 2025-yilda ijtimoiy soliq to‘laganlar 860 ming nafar bo‘lgan. Demak, ro‘yxatdan o‘tishning o‘zi muntazam sug‘urta ishtirokini anglatmaydi.

Demografik o‘zgarishlar ham bizdan uzoq muddatni ko‘zlab ishlashni talab qilmoqda. Ma’lumotlarga ko‘ra, tug‘ilishda kutilayotgan o‘rtacha umr davomiyligi 1993-yildagi 67,9 yoshdan 2025-yilda 75,4 yoshga yetgan. Insonlarning uzoqroq yashashi — ijobiy o‘zgarish. Pensiya majburiyatlarini rejalashtirishda esa pensiya yoshiga yetgan insonning kutilayotgan qolgan umri, sog‘lig‘i va mehnat imkoniyatini o‘rganishimiz zarur.

Moliyaviy hisoblar ham bugundan tayyorgarlik ko‘rish zarurligini ko‘rsatadi. Jamg‘armaning 2025-yil uchun byudjet transferti 20,2 trillion so‘mni, 2026-yilda esa 22,5 trillion so‘mni tashkil etishi kutilmoqda. Ushbu raqamlar oddiy solishtirish bilan ham yetarli bo‘lmaydi. Ish haqi, bandlik, narxlar va demografiya o‘zgarsa, natija ham o‘zgaradi. Lekin raqamlar oldimizga aniq vazifa qo‘yadi: kelgusi majburiyatlarni moliyalashtirish manbalarini oldindan mustahkamlashimiz kerak.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Yangi model afzalligi

Qo‘llab-quvvatlaydigan asosiy tamoyil oddiy: ko‘proq va uzoqroq badal to‘lagan fuqaroning pensiyasi ham yuqoriroq bo‘lishi kerak. Rasmiy staj, rasmiy maosh va badal to‘lash davomiyligi pensiya hisobida tushunarli aks etishi zarur. Ayni paytda kam maosh olgan yoki oila a’zosini parvarishlagan inson keksalikda himoyasiz qolmasligi kerak. Mehnat hissasini baholash va ijtimoiy kafolat bir-birini to‘ldirishi lozim.

Taklif qilinayotgan yo‘nalishlardan biri — pensiya hisobidagi ish haqi davrini besh yildan bosqichma-bosqich yigirma yilga kengaytirish. Bu uzoq yillik hissani to‘laroq ko‘rsatishga xizmat qiladi. Bunda hisobga olinayotgan mehnat davrining ish haqi eng past bo‘lgan 10 foizli qismini hisobdan chiqarish taklif etilmoqda.

Hisobga olinadigan ish haqi chegarasini oshirish ham taklif qilinmoqda. Bu yuqori rasmiy maoshdan to‘langan mablag‘ning pensiyada ko‘proq aks etishiga yordam beradi. 2027-yildan ushbu chegarani pensiyani hisoblash bazaviy miqdorining 12 baravaridan 13 baravariga, ya’ni 6 million so‘mdan 6,6 million so‘mga oshirish nazarda tutilgan.

Shaxsiy jamg‘armalarni rivojlantirish ko‘zda tutilgan. Kam va o‘rta daromadli ishtirokchi ixtiyoriy mablag‘ kiritsa, davlat ham qo‘shimcha badal qo‘shishi taklif etilmoqda. Bunda yordamni daromadga qarab 50 foizgacha tabaqalashtirish byudjet mablag‘ini jamg‘arish imkoniyati cheklangan fuqarolarga ko‘proq yo‘naltirishga xizmat qiladi.

Yana bir taklif — belgilangan chegaradan yuqori maosh qismi uchun to‘langan ijtimoiy soliqning bir ulushini xodimning shaxsiy jamg‘armasiga o‘tkazish. Xususan, 7,6 million so‘mdan yuqori daromad qismining 1 foizini to‘langan ijtimoiy soliq hisobidan shaxsiy pensiya hisobvarag‘iga yo‘naltirib, mazkur ulushni 2040-yilga kelib 3 foizga yetkazish taklif etilmoqda.

Bola parvarishi va qonunchilikda tan olinadigan boshqa badalsiz davrlar uchun pensiya huquqlarini byudjetdan maqsadli moliyalashtirish taklifi ham shu mantiqqa asoslanadi. Bundan tashqari, ijtimoiy soliq imtiyozlarini qayta ko‘rib chiqish taklif etilmoqda.

Shaxsiy jamg‘arma kelajakda davlat pensiyasiga qo‘shimcha daromad berishi mumkin. Xususiy va korporativ pensiya dasturlari ish beruvchining ishtirokini kengaytiradi. Buning uchun aktivlarni saqlash, investitsiya qarorlarini qabul qilish va mustaqil nazorat vazifalari aniq ajratilishi ko‘zda tutilmoqda.

Ochiq muhokama talab qiladigan qarorlar

Eng sezgir masala — pensiya yoshi. Pensionerlar soni va to‘lov davri o‘zgarayotgani uchun bu masala kun tartibiga chiqmoqda. Takliflarda 2028-yildan 12 yil davomida bosqichma-bosqich har yili uch oydan oshirib borish orqali 2039-yilga kelib erkaklar uchun 63, ayollar uchun 58 yoshga yetish. Bu hali muhokamadagi taklif ekanini alohida ta’kidlamoqchiman. Uni amaldagi qoida deb tushunish kerak emas. Ixtiyoriy kechroq pensiyaga chiqish rag‘bati ham ko‘zda tutilgan.

Bunda pensiya yoshi o‘zgarishi davrida 55/60 yoshga to‘lgan fuqarolarga pensiya oldi yoshini vaj qilgan holda ishdan bo‘shatish yoki ishga qabul qilishdan bosh tortishga yo‘l qo‘yilmaslik kafolatlanmoqda hamda ularga ishsiz deb e’tirof etilgan fuqarolarga 2 yil avval muddatdan oldin pensiyaga chiqish huquqi, yer osti ishlarida, mehnat sharoiti zararli va og‘ir ishlarda mehnat to‘liq ish kuni davomida band bo‘lgan erkaklarga muddatdan avval imtiyozli pensiyaga chiqish huquqi saqlab qolinmoqda. Shuningdek, erkaklar 60 yosh va ayollar 55 yoshga to‘lganda jamg‘arib boriladigan pensiya mablag‘larini olish huquqi beriladi.

Minimal stajni yetti yildan o‘n besh yilga bosqichma-bosqich oshirish taklifi uzoqroq ishtirokni rag‘batlantirish maqsadida kiritilgan.

O‘zini o‘zi band qilganlar uchun ijtimoiy soliqni amaldagi miqdor saqlangan holda majburiy qilib belgilash taklif etilmoqda (yiliga 1 bazaviy hisoblash miqdorida — 440 ming so‘m). Bunda ushbu miqdorni bo‘lib to‘lash imkoniyati ham taqdim etilmoqda. Bundan tashqari, o‘zini o‘zi band qilgan fuqarolarga qo‘shimcha ravishda homiladorlik va tug‘ish hamda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik nafaqasi to‘lovi kafolatlanadi.

Raqamlashtirishning eng muhim natijasini men fuqaroning kelajakdagi o‘z pensiyasi haqida to‘liq ma’lumot olishida ko‘raman. U telefonida rasmiy staji, hisoblangan ish haqi, to‘langan badallari, shakllangan pensiya huquqlari, shaxsiy jamg‘armasi, investitsiya daromadi va kutilayotgan pensiyasini birgalikda ko‘ra olishi kerak. Davlat pensiyasi bo‘yicha huquq bilan investitsiya qilingan shaxsiy mablag‘ esa alohida tushuntirilishi lozim. 2027-yildan Pensiya jamg‘armasining barcha 25 turdagi xizmatlarini elektron va proaktiv shaklga o‘tkazish, sun’iy intellekt va “Mening pensiyam” mobil ilovasidan foydalanish ko‘zda tutilgan.

Ilova raqam ko‘rsatish bilan cheklanmaydi. U qaysi davr ma’lumoti yetishmayotganini bildirishi, xatoni tuzatish yo‘lini ko‘rsatishi va rasmiy mehnatni davom ettirish natijasini tushuntirishi kerak.

Pensiya islohoti — avlodlar o‘rtasidagi kelishuv. Bugun ishlayotgan inson rasmiy mehnati va badallari o‘zining pensiya huquqlarini shakllantirayotganini bilishi kerak. Davlat esa yetarli daromadni mustaqil ta’minlay olmaydiganlarni himoya qilish mas’uliyatini saqlashi shart. Men uchun adolatli tizimning ma’nosi budir: inson mehnatining qadri keksalikda ham yo‘qolmasin, uning himoyasi esa kelgusi avlodga bajarib bo‘lmaydigan va’da bo‘lib qolmasin.

Oramizdagi odamlar

CHO‘LNI BO‘STONGA AYLANTIRGAN AYOL

— Uzr, ketsam bo‘ladimi? Bu yig‘ilishga adashib kelib qoldim shekilli...
— Hozir, opajon, ikki daqiqa, — deya majlisni olib borayotgan kishi “o‘tiring” deganday qo‘li bilan ishora qildi.
Orqa qatordan ko‘rinish bergan ayolning gapi hammani sergak torttirdi. Bungacha xotin-qizlar bir-biriga navbat bermay, o‘z dardini aytish bilan ovora edi. Mas’ullarning taklifi bilan men ham bir chetda o‘tirgancha, ushbu yig‘inni kuzatib turardim. Aytishlaricha, bu joyga bir mahallaning yigirmaga yaqin ishsiz xotin-qizi taklif etilgan. Maqsad — ular bilan suhbatlashib, imkon darajasida bandligini ta’minlashga ko‘maklashish. Shu sabab bo‘lsa kerak, yig‘ilganlarning aksariyati kredit, yana biri tikuv mashinasi, boshqasi yordam puli so‘rardi.



Yig‘ilish yakuniga yaqinlashgach, mas’ullardan biri: “Endi besh daqiqagina vaqt ajratamiz. Tojixol ayani taklif qilganmiz. U sizlar bilan o‘z tajribasini o‘rtoqlashadi”, deya ketishga shoshilayotganlarni o‘tirg‘izdi.

Uzr so‘rab, yig‘in boshidayoq ketmoqchi bo‘lgan onaxon o‘rnidan turdi. Bir oz oldinga chiqib gap boshladi. Ovozidan shijoatli ekani sezilib turardi.

— Rosti, bunday majlis ekanini bilganimda kelmasdim, — dedi u. — Qarasam, bu yerda o‘tirganlarning barchasi to‘rt muchasi sog‘ xotin-qizlar. Ammo bir bechorahol, qo‘lidan ish kelmaydigan odam kabi ko‘p narsa so‘rayotganini ko‘rib achindim. Shunday zamonda, mehnat qilsang, barakali xirmon bo‘ladigan pallada ham, bersang yeyman deb o‘tirish uyat. Singiljonlar, hammaning tomorqasi bor. U yerda imkoniyat ham bor, mablag‘ ham. Qolaversa, bitta qoramol oling. Yaxshilab boqib sotsangiz, ikkita bo‘ladi. Keyin to‘rtta. Uch-to‘rt yilda qo‘rangiz molga to‘ladi. Birovga muhtoj bo‘lmaysiz...

Dadil gapirayotgan ayaning har bir gapi ta’sirli edi. Barcha jim tingladi. Kimga qanday ta’sir qildi, bilmadim. Ammo men vaqt topib, shu onaxon bilan suhbatlashishni maqsad qildim. Yaqinda Tojixol opani yo‘qlab bordim. Chiroqchining Chorshanba mahallasida yashar ekan. Uni topishga qiynalmadim. Kimdan so‘rasam: “Bir oz yursangiz tepalikka ko‘tarilishda — katta yo‘lning chetida katta bog‘ chiqadi. Shu Tojixol ayaning bog‘i. Bu atrofda unikidan boshqa katta bog‘ yo‘q”, deydi.

Aytilgan boqqa yaqinlashganimda qo‘lida o‘roq bilan o‘t o‘rayotgan Tojixol ayani uchratdim. Harakatlari ancha chaqqon. Ishlab charchamasligi yuz-ko‘zidan sezilib turgan opa ayni paytda 75 yoshda. Lekin bir qarashda bu yoshda ekaniga ishonmaysiz.

— Yoshim saksonni qoralab borayotganiga ko‘pchilik ishonmaydi, — deydi Tojixol Bekmurodova. — Buning hammasi mehnatning sharofati bilan. Eh-he, bu bosh nimalarni ko‘rmadi deysiz? Turmush o‘rtog‘im vafot etganida endi qirq yoshdan oshgandim. Yetti bola bilan qolib ketdim. Yolg‘iz boshim bilan ham ro‘zg‘or, ham bolalarning kiyim-kechagini qilish kerak. Bir muddat yo‘limni topolmay qoldim. Hayotning kutilmagan zarbasi og‘ir bo‘larkan. Ba’zilar endi Tojixol nochor bo‘lib qoladi dedi. O‘zimning ham boshim qotgan. Nima qilishni bilmasdim. Ketgan kishi qaytmaydi. Tiriklar yashashi kerak. Ko‘z yoshi qilib o‘tirgan bilan kun o‘tarmidi? O‘zimda kuch topdim. Qo‘limga ketmon olib, bor alamimni mehnatdan oldim. Erim rahmatli tirikligida vodiy tomonga borib, bir tanishidan issiqxona qilishni o‘rganib kelgandi. Hovlimizdagi 2 sotixgina yerda issiqxona qurib, pomidor ekib bergandi. U paytlari bu atroflarda issiqxona qilinmasdi. Shuni ishga soldim. Pomidor, bodring ekib hosilini sotdim. Lekin bu bilan ro‘zg‘orni butlab bo‘larmidi? Imkoni bo‘lsa, kattaroq joyda issiqxona qurishni maqsad qildim. Lekin joy yo‘q edi. Huv narida haftada bir kun bo‘ladigan Chorshanba bozori bor, shu bozorga bordim. Aylanib, mana shu tepalikka chiqib o‘tirdim. Katta yer. Lekin lalmi. Faqat yantoq o‘sadi. Go‘yo sahro bo‘lib yotibdi. O‘zimcha xayol qildim: shu yerga ishlov berib, issiqxona qilsam, atrofini boqqa aylantirsam. Lekin xayol surgan bilan ish bitarmidi. Qo‘limga ketmonni oldim. O‘g‘illarimni ergashtirib kelib, shu joyni obod qilamiz dedim. Ular ham ishonmadi. Men ishga kirishdim, ular ortimdan ergashdi...

Tojixol aya gurung avjida to‘xtab qoladi. Bir muddat atrofga boqadi. Sekin borib, nihollarga termilib, ularga shivirlaydi. Gaplashgan bo‘ladi. Daraxtlar ham uni tushungandek tebranadi. Aya negadir ko‘ziga yosh oladi. Balki chelaklab suv keltirib, ne azobda nihol ko‘kartirganini eslayotgandir. Yoki katta boqqa aylantirganida kimlardir undan bu joyni tortib olish uchun janjal ko‘targani yodiga tushgandir. Nima bo‘lganda ham shu qaqroq joyda katta bog‘ yaratish oson bo‘lmagani aniq.

Ha, Tojixol aya yolg‘iz ona bo‘lib bosh egmadi. Barchasidan oriyatini ustun qo‘-yib, biror kishidan yordam so‘ramadi. Yolg‘izligini aytib, mahalla yoki biror idora eshigini taqillatmadi. O‘z kuchiga ishondi. Gohida qo‘l bilan, gohida texnika yordamida yer ochdi. Rejasi bo‘yicha dastlab o‘ttiz sotix yerda issiqxona tashkil qildi. Tajribali bog‘bonlar bilan maslahatlashib, limon ko‘chatlarini ekdi. Pastdan suv tortib, tomchilatib sug‘orishni yo‘lga qo‘ydi. Tirishqoqligi bois, agrotexnik tadbirlarni o‘qib-o‘rgandi. Vaqtida o‘g‘itini berdi. Harakati samara berib, tez orada ekkan nihollari bo‘y ko‘rsatib, hosilga kirdi. Asta-sekin oilasiga daromad kirib, turmushi yaxshilana boshladi. Tashabbuskor ayol bu bilan cheklanib qolmadi. Yana yangi issiqxona qurdi. Bunga ham limon ekib, endi ko‘proq daromad topadigan bo‘ldi. Bir paytlar qarovsiz yer obod maskanga aylandi. Bugun Tojixol aya shu yerning o‘zida to‘rtta issiqxona qurib, jami bir gektar yerni limonzorga aylantirgan.

— Gohida turmushidan noligan kishilarni ko‘rsam, chidab turolmayman. Ayniqsa, bor imkoniyatini ishga solmay, bahona qidiruvchilarga toqatim yo‘q, — deydi aya. — Axir davlatimiz rahbari bugun aholi uchun katta imkoniyatlar eshigini ochib berdi. Harakat qilgan kam bo‘lmaydi. To‘rt sotix tomorqadan millionlab daromad topish mumkin. Bugun ish izlab, o‘zga yurtda sarson bo‘lishga zarurat yo‘q. Bozorimiz obod. Xirmonimizga baraka kirgan. Tunov kuni bir yosh oilaning mojarosiga guvoh bo‘ldim. Oila boshlig‘i ishsiz. Arzimas yetishmovchilik oqibatida kelin ajrashmoqchi. Ikki bolasi yetim qolishini o‘ylagani ham yo‘q. Qo‘limdan kelgancha nasihat qildim. Oila muqaddas qo‘rg‘on, uni asrash esa er va xotinning birdek vazifasi ekanini tushuntirdim. Katta hovlisi bor ekan. Dehqonchilik qilish yo‘lini o‘rgatdim. Anchadan beri qo‘l urilmagan tomorqasiga o‘zim bosh bo‘lib, ishlov berdik. To‘qsonbosti ekinlar ekishni mo‘ljal qildik. Hali yerga urug‘ qadalmasidan hosilni sotish haqida o‘ylab o‘tiribdi. Hosil tayyor bo‘lsa, xaridor shu yerning o‘zidan sotib olib ketishini uqtirdim. Hozir ikkalasi bir-birini tushunib, mehnat qilyapti. Oilada kelishmovchilik aslida bekorchilikdan kelib chiqadi.

Bugun ellikka yaqin nabira, o‘ttiz chevaraning sevimli momosi Tojixol aya ibratli ishi bilan nafaqat mahallasida, balki Chiroqchi tumanida ko‘pchilikka namuna. O‘zi aytganidek, ko‘plab oilalarning boshini qovushtirishda ham faol ishtirok etib kelmoqda. Yolg‘iz boshi bilan yetti farzandni uyli-joyli qildi. Kechalari qo‘liga kitob olib, bolalarining hammasi oliy ma’lumotli bo‘lishiga erishdi. Hozir ham qo‘lidan kitob tushgani yo‘q. Nabiralari o‘rtasida kitobxonlik kechalarini o‘tkazib, o‘z mablag‘idan ularni rag‘batlantirib bormoqda.

— Halol mehnat ortidan shu kunlarga yetdim. To‘rt o‘g‘ilni o‘qitib, uyli-joyli qildim. Uch qizni uzatdim. Hozir ikki nabiram yuridik, ikkisi tibbiyot va yana ikki nafari pedagogika yo‘nalishi bo‘yicha oliygohda tahsil olmoqda, — deydi Tojixol aya. — Ularning moddiy ta’minotini o‘zim qilaman. Kontrakt pulini to‘lab beraman. O‘qigan odam hech qachon kam bo‘lmasligini doim uqtiraman. Qolgan nabiralarimning ham o‘qishga ishtiyoqi baland. Bu borada o‘zim doim qattiqqo‘lman. Shularning baxtu kamolini ko‘raman deb, kechani kecha, kunduzni kunduz demadim. Shukrki, shunday kunlarga yetkazdi. Halollik ortidan birovdan kam bo‘lganim yo‘q. Shu paytgacha charchash nimaligini bilmadim. Doim harakatdaman. Prezidentimiz biz uchun qancha harakat qilmoqda. Turli davlatlarga borib, kelishuvlarga erishmoqda. Buning barchasi xalqimiz manfaati uchun! Yaqinda Koreyaga borganini kuzatib o‘tirdim. Bir zum tinim bilmadi. Har bir daqiqadan unumli foydalanishga harakat qildi. Hatto o‘sha yerda o‘qiyotgan o‘g‘il-qizlarimiz holidan ham xabar olishga ulgurdi. Shunday ekan, tomoshabin bo‘lib o‘tirishga haqqimiz yo‘q. Bu Vatanni avaylab asrash, yuksakka olib chiqish — har birimizning burchimiz.

Ayaning bog‘ini ko‘zdan kechirgan kishining dili yayraydi. Bir gektar limonzordan tashqari ham daraxtlar ko‘p. Atrof yashillikka burkanib, o‘zgacha manzara hosil qilgan. Bu yerlar avval yantoqzor bo‘lganiga ishonmaysiz. Bir tomoni tokzor, ikkinchi tomonida olma daraxtlari ekilgan. Toklar shu yil hosilga kirib, 10 million so‘mga yaqin daromad keltiribdi. Tojixol aya ilgari limonini ichki bozorda sotardi. Hozir eksportni yo‘lga qo‘ygan. O‘tgan yili xorijlik ishbilarmonlarga 100 ming dollarlik mahsulot sotdi. Joriy yilda 300 ming dollarlik meva sotishni maqsad qilgan. Yillik daromadini hisoblashni uncha xohlamaydi. Lekin bir milliard so‘mga yaqinlashayotgani taxmin qilinadi. Ajablanarlisi, biror marta bankdan kredit olmagan. Doim o‘z kuchiga ishonib kelgan. Hozir farzandlaridan tashqari mahallasidagi olti xotin-qizning bandligini ta’minlagan. Hali oldinda qilishi lozim bo‘lgan ishlari ko‘p...

Akbar RAHMONOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

YANGI O‘ZBEKISTON

Bugun bizda imkoniyat bor. Endi asosiy vazifa shu imkoniyatni bilimga, bilimni tadqiqotga, tadqiqotni yangi natijaga, yangi natijani esa mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladigan qadriyatga aylantirishdir.

KO‘ZGU 5

www.yuz.uz yuz.uznews yuz_official yuz.uz_news yuz.uz_news

2026-yil 14-oktabr, 212-son

ANIQLIK, MANTIQ VA UYG‘UNLIKKA ASOSLANGAN TAFAKKUR

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti direktori, akademik O‘tkir ROZIQOV bilan “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari bosh muharriri Salim DONIYOROV suhbati

Boshlanishi 1-betda

— Bugun matematika ko‘pchilik tasavvurida fundamental fan sifatida qabul qilinadi. Ammo zamonaviy dunyoda u iqtisodiyot, texnologiya, sun’iy intellekt va hatto davlat boshqaruvining strategik resursiga aylanmoqda. Biz kelgusida bu intellektual kenglikni milliy yuksalish omiliga aylantira olamizmi?

— Hozirgi kunda mamlakatlarning raqobatbardoshligi ko‘p jihatdan tabiiy resurslarga emas, balki inson kapitali va intellektual salohiyatga bog‘liq. Matematika ana shu intellektual salohiyatning eng muhim asosi hisoblanadi. Sun’iy intellekt, kvant texnologiyalari, kriptografiya, robototexnika, iqtisodiy modellashtirish, ma’lumotlarni tahlil qilish — bularning barchasi zamirida matematika bor. Shu bois, matematikaga faqat maktabda o‘qitiladigan fan yoki fundamental tadqiqot sifatida emas, mamlakatning strategik intellektual resursi sifatida qarash kerak.

Buning uchun esa iqtidorli yoshlarni erta aniqlash, ular uchun kuchli matematik muhit yaratish, ilmiy maktablarni qo‘llab-quvvatlash va eng muhimi, ularga O‘zbekistonda turib dunyo darajasida tadqiqot bilan shug‘ullanish imkoniyatini berish zarur.

Menimcha, mamlakatimizning kelajakdagi intellektual yuksalishining muhim omillaridan biri matematika, tabiiy fanlar va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unligi bo‘ladi.

— Ayni damda institutdagi izlanishlar samarasi nimalarda ko‘zga tashlanmoqda? Tadqiqotlarning mamlakat iqtisodiyoti, sanoati, raqamli transformatsiyasi yoki boshqa sohalar rivojiga qo‘shayotgan hissasi haqida nima deya olasiz?

— Matematika institutining asosiy vazifalari yangi ilmiy (nazariy) natijalar olish, yuqori malakali kadrlar tayyorlash, xalqaro ilmiy hamkorlik, matematika ta’limi o‘quv-uslubiy materiallarini muvofiqlashtirish, matematikani mamlakat taraqqiyoti yo‘lida qo‘llashdir.

Yangi ilmiy natijalarimiz institut olimlari tomonidan har yili 200 dan ortiq ilmiy maqolaning SCOPUS bazasidagi nufuzli xalqaro nashrlarda e’lon qilinishida yaqqol namoyon bo‘lmoqda. Shuningdek, matematik kadrlar tayyorlash sohasida institut mamlakatdagi yetakchi ilmiy markaz sifatida davlat buyurtmasi asosida yetarli miqdorda falsafa doktori va fan doktorlarini o‘z vaqtida tayyorlab kelmoqda.

Bugun zamonaviy matematika bilan amaliy sohalar o‘rtasidagi bog‘liqlik tobora kuchaymoqda. Biz insoniyat taraqqiyotining nihoyatda muhim va tarixiy bosqichlaridan birida yashayapmiz. Nazarimda, insoniyat taraqqiyotidagi ilmiy-texnologik o‘zgarishlarni shartli ravishda uch yirik inqilob bilan bog‘lash mumkin.

Birinchi inqilob — elektr energiyasining kashf etilishi va keng qo‘llanishi. Bu insoniyatga ilgari minglab odamlar mehnati talab qilingan ko‘plab jarayonni texnika yordamida bajarish imkonini berdi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi keskin oshdi, sanoat rivojlandi va yangi iqtisodiy imkoniyatlar paydo bo‘ldi.

Ikkinchi inqilob — internet va raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi. Internet insoniyatga ulkan hajmdagi axborotni tezkor izlash, olish va uzatish imkonini berdi. Natijada jamiyat hayotining deyarli barcha sohaci — ilm-fan, ta’lim, iqtisodiyot, tibbiyot, sanoat va boshqaruv jarayoni bosqichma-bosqich raqamlasha boshladi.

Uchinchi inqilob — sun’iy intellekt davri. Bugun sun’iy intellekt insoniyatning bilim olish, axborotni qayta ishlash va intellektual faoliyat imkoniyatlarini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Endi iqtisodiy hamda ilmiy taraqqiyotda nafaqat tabiiy resurslar va an’anaviy texnologiyalar, balki ma’lumotlar, matematik modellar, algoritmlar va sun’iy intellekt texnologiyalarini yaratish ham strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, matematika bugungi uchinchi inqilobning fundamental asoslaridan biriga aylanmoqda. Chunki sun’iy intellekt, mashinaviy o‘qitish, katta ma’lumotlar, kriptografiya va zamonaviy raqamli texnologiyalar asosida matematik modellar, algoritmlar va nazariyalar yotadi.

Shuning uchun bugun matematikaga faqat nazariy fan sifatida emas, balki mamlakatning ilmiy-texnologik va iqtisodiy taraqqiyotini ta’minlaydigan strategik yo‘nalish sifatida qaralishi lozim.

Institutimizda fundamental matematik tadqiqotlar bilan bir qatorda, matematika yutuqlarini tibbiyot, farmatsevtika, raqamli texnologiyalar va kosmik sohalarga tatbiq etishga qaratilgan qator amaliy loyihalar ustida ham ishlayapmiz.

Birinchidan, sun’iy intellekt yordamida yangi dori-darmonlarni yaratish jarayonini tezlashtirish va optimallashtirish.

An’anaviy usullarda yangi dori vositasini ishlab chiqish ko‘p yil va katta moliyaviy resurs talab qilishi mumkin. Sun’iy intellekt esa ulkan hajmdagi biologik va kimyoviy ma’lumotlarni tezkor tahlil qilish, istiqbolli birikmalarni aniqlash va ularning xususiyatlarini oldindan prognozlash imkonini beradi. Bu esa yangi dori vositalarini yaratish jarayonini tezlashtirish va tadqiqot xarajatini kamaytirishga xizmat qilishi mumkin.

Ikkinchidan, generativ sun’iy intellekt va katta til modellari — LLM (Large Language Model) sohasidagi tadqiqotlar. Bugun dunyoda katta til modellari, aqlli yordamchilar, avtomatlashtirilgan tahlil tizimlari va bilimga asoslangan raqamli platformalar juda tez rivojlanmoqda. Biz ham o‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlarini hisobga olgan holda katta til modellarini yaratish hamda ulardan ilm-fan, ta’lim, davlat boshqaruvi va biznes jarayonida foydalanish imkoniyatini o‘rganyapmiz.

Uchinchidan, tibbiyotda shifokorga yordam beruvchi matematik va sun’iy intellekt tizimlarini yaratish. Masalan, qandli diabet nafaqat qondagi qand miqdoriga, balki yurak-qon tomir tizimi va buyraklar faoliyatiga ham ta’sir qilishi mumkin. Shuning uchun qaysi bemorda kelajakda qanday jiddiy asoratlar rivojlanishi xavfi yuqoriligini oldindan aniqlash muhim. Matematika instituti olimlari bu masalani matematika, tibbiyot va sun’iy intellektni birlashtirgan holda o‘rganmoqda. Bu yerda asosiy maqsad shifokorni kompyuter bilan almashtirish emas. Aksincha, shifokorga katta hajmdagi ma’lumotlarni tahlil qilish va to‘g‘ri klinik qaror qabul qilishda yordam beradigan raqamli assistent yaratishdir.



To‘rtinchidan, kompyuter tomografiyasi tasvirlarini matematik usullar asosida qayta tiklash. Bugun kompyuter tomografiyasi (KT) tibbiyotda inson tanasini kesmay turib, ichki a’zolar, o‘smalar va jarohatlarni yuqori aniqlikda ko‘rish imkonini beradi. Sanoatda esa undan murakkab detallarning ichki nuqsonlarini aniqlashda keng foydalaniladi. Biroq KT texnologiyasida muhim vazifalardan biri nurlanish dozasini kamaytirgan holda oz sonli proyeksiyalar asosida ham aniq tasvir olishdir. Matematika institutida KT tasvirlarini tiklashga qaratilgan optimal matematik usullar ishlab chiqilmoqda. Bundan ko‘zlangan asosiy maqsad bemorning nurlanish dozasini kamaytirish, tasvir aniqligini oshirish va xatolikni kamaytirish, sun’iy artefaktlar hamda shovqinlarni bartaraf etish, kompyuterda tez, shu bilan birga, barqaror ishlaydigan algoritmlarni yaratish. Bu esa kelajakda tibbiy tasvirlarni tezkor qayta ishlash va tashxis jarayonini takomillashtirishga xizmat qilishi mumkin.

Beshinchidan, kosmik texnologiyalar, aviatsiya va avtonom boshqaruv tizimlari uchun matematik modellashtirish. Kosmik texnologiyalar, aviatsiya va avtonom boshqaruv tizimlarining jadal rivojlanishi murakkab harakat jarayonlarini matematik modellashtirish va samarali boshqarish usullarini ishlab chiqishni talab etmoqda. Institutimizdagi muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri markaziy gravitatsion maydonlarda harakatlanuvchi obyektlar, jumladan, kosmik apparatlar va boshqariluvchi raketa tizimlarining harakatini optimal boshqarish masalalarini o‘rganishdir.

Bu yo‘nalishda ikkita obyektning qarama-qarshi maqsadlari — birining ikkinchisini aniq tutib olishga, ikkinchisining esa undan qochishga intilishi differensial o‘yinlar nazariyasi asosida tadqiq etilmoqda.

Bunday matematik yondashuvlar kosmik apparatlarning yaqinlashuvi, sun’iy yo‘ldoshlar harakatini boshqarish, kosmik chiqindilar bilan bog‘liq xavflarni kamaytirish, shuningdek, avtonom uchuvchi qurilmalar, dronlar harakatini muvofiqlashtirish kabi masalalarda muhim ahamiyat kasb etadi.

> **Kelajakda kompyuter hisoblaydi, sun’iy intellekt yordam beradi, ammo qaysi masalani qo‘yish, qaysi modelni tanlash va natijaning to‘g‘riligini baholash insonning matematik tafakkuriga bog‘liq bo‘ladi. Shu ma’noda, sun’iy intellekt matematika uchun raqobatchi emas, balki yangi imkoniyatlarni ochadigan vosita bo‘lishi mumkin.**

Oltinchidan, institutning Buxoro bo‘linmasi tomonidan o‘rganilgan matematik model paxta xomashyosi g‘aramidagi ko‘chish jarayonlarini adekvat tavsiflash uchun qo‘llandi. Natijada parallelepiped shaklidagi paxta g‘aramining ochiq osmon ostida joylashgan barcha sirtida atrof-muhit bilan konvektiv issiqlik va namlik almashinuvi hamda xirmon haroratini prognozlash aniqligi 8-10 foiz oshdi. Dimlanish va o‘z-o‘zidan yonishning oldini olish hisobiga paxta tolasi sifatidagi yo‘qotishlar 4-5 foiz kamaydi. Shuningdek, xomashyoni saqlash va quritish bilan bog‘liq moliyaviy hamda mehnat xarajatlari 7 foiz qisqardi.

Yettinchidan, institutning Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘linmasi tomonidan seysmik ma’lumotlarni qayta ishlash aniqligini oshiruvchi matematik modellar ishlab chiqilmoqda. Ulardan asosiy maqsad quduqlarni noto‘g‘ri burg‘ilash xavfini kamaytirish, seysmik ma’lumotlarni qayta ishlash aniqligini oshirish, sarf-xarajatlarni tejash, sanoat korxonalarining iqtisodiy foydasini ko‘paytirish. Bu esa kelajakda O‘zbekistonning mineral xomashyo bazasini aniqlashda milliardlab mablag‘ni tejash va iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga xizmat qilishi mumkin.

Ayniqsa, sun’iy intellekt va avtonom texnologiyalar jadal rivojlanayotgan hozirgi davrda bunday fundamental matematik tadqiqotlar kelajakda xavfsiz, ishonchli va samarali boshqaruv tizimlarini yaratish uchun muhim ilmiy poydevor bo‘lib xizmat qiladi.

Umuman olganda, bu tadqiqotlar bir jihatni yaqqol ko‘rsatmoqda: zamonaviy matematika faqat nazariy bilimlar majmui emas. U bugun tibbiyotdan tortib farmatsevtikagacha, sun’iy intellektdan tortib kosmik texnologiyalargacha bo‘lgan eng muhim sohalarning ilmiy asoslaridan biriga aylanmoqda. Institutimizning vazifasi esa ana shu fundamental salohiyatni amaliy natijaga aylantirishdir.

— Matematika — yoshlar fani. Shu o‘rinda iqtidorli yosh matematikni olim darajasiga olib chiqish jarayoni xususida to‘xtalsangiz. Bu institut oldiga qanday vazifalarni qo‘ymoqda? Umuman, dunyoga mashhur matematiklarni tarbiyalaydigan ilmiy maktablar yaratilyaptimi? Bu jarayonda nimalarga tayanilmoqda?

— Matematikada iqtidorning o‘zi yetarli emas. Iqtidorga muhit, ustoz va eng muhimi — vaqt kerak. Bugun davlatimiz tomonidan ilm-fanga qaratilayotgan e’tibor natijasida yoshlarimiz uchun ana shu uchta muhim shart tobora keng yaratilmoqda. Yoshlar va olimlarning ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun sharoitlar yaxshilanmoqda. Ularni ilmiy izlanishdan chalg‘itadigan ko‘plab ishlardan ozod qilishga e’tibor qaratilmoqda. Bu — ilm uchun vaqt degani.

Institutlarimizda bino, laboratoriyalar va ilmiy-texnik baza yangilandi. Bu esa zamonaviy, xalqaro talablarga mos ilmiy muhit yaratish imkonini berdi. Eng muhimi, matematika sohasida kuchli va tajribali ustozlar bor. Demak, bizda iqtidor, muhit va ustozni birlashtirish uchun zarur asos mavjud.

Yosh matematikni olim darajasiga olib chiqish uchun harakat maktab davridan boshlanishi, keyin bakalavriat, magistratura, doktorantura va mustaqil ilmiy tadqiqot bosqichlarida uzviy davom etishi kerak.

Institut oldida turgan eng muhim vazifalardan biri — ilmiy maktablarimizni saqlash va rivojlantirish bilan birga yangi ilmiy maktablarni shakllantirishdir. Buning uchun yosh olimni faqat dissertatsiya yozishga emas, avvalo, ilmiy muammoni ko‘ra bilish, savolni to‘g‘ri qo‘yish, mustaqil fikrlash va yangi natija yaratishga o‘rgatishimiz kerak.

Jahonda tan olingan kuchli matematika maktablari bir-ikki yilda shakllanib qolmagan. Ularning ortida o‘nlab yillar davomida yaratilgan ilmiy an’ana, kuchli ustozlar va bir-birini davom ettirib kelayotgan shogirdlar avlodi turadi.

Shuning uchun institutimizda yosh olimlar uchun ana shunday ilmiy muhitni saqlash va yanada rivojlantirishni asosiy vazifalarimizdan biri deb bilaman.

Bizda ***“Kuchli ustoz — iqtidorli shogird — zamonaviy ilmiy muhit — dolzarb tadqiqot — xalqaro natija — amaliy tatbiq”*** zanjiri uzluksiz ishlashi kerak. Agar shu tizimni yarata olsak, bugungi iqtidorli yoshlar ertaga institutimizning yangi ilmiy maktablarini yaratadigan, O‘zbekiston matematikasi nufuzini xalqaro miqyosda yanada yuksaltiradigan olimlar bo‘lib yetishadi.

— Ilm va amaliyot uyg‘unligi fan rivojida muhim. Universitetlar, tadqiqot institutlari va xususiy texnologiya kompaniyalari o‘rtasidagi hamkorlikning kuchayishi mamlakat iqtisodiy barqarorligi va rivojida muhim ahamiyatga ega, shunday emasmi? O‘zbekistonda fundamental matematika bilan biznes va texnologik sektor o‘rtasida qanday ko‘prik bor?

— Universitet, ilmiy-tadqiqot instituti va texnologik kompaniya bir-biridan alohida ishlasa, imkoniyatlarning bir qismi yo‘qoladi. Universitet kadr tayyorlaydi, institut yangi bilim yaratadi. Biznes esa bu bilimni texnologiya va mahsulotga aylantirishi mumkin.

Masalan, sun’iy intellekt va mashinaviy o‘qitish sohalarida chiziqli algebra, ehtimollar nazariyasi, statistika, optimallashtirish va differensial tenglamalar kabi klassik matematik yo‘nalishlar muhim o‘rin tutadi. Shuning uchun O‘zbekistonda “fundamental matematika → amaliy tadqiqot → texnologiya → iqtisodiy qiymat” zanjirini shakllantirishimiz kerak.

Buning uchun institutlar va texnologik kompaniyalar o‘rtasida qo‘shma laboratoriyalar, amaliy loyihalar, stajirovkalar va grant dasturlarini ko‘paytirish maqsadga muvofiq.

— So‘nggi yillarda sun’iy intellekt haqida ko‘p gapira boshladik. Fikrimizcha, yaqin kelajakda u taraqqiyotni belgilab beradiganga o‘xshaydi. Sun’iy intellekt rivojlanishi matematikaga ehtiyojni kamaytiradimi?

— Aksincha, menimcha, sun’iy intellekt matematikaga ehtiyojni yanada oshiradi. Chunki sun’iy intellektning o‘zi matematik g‘oyalar asosiga qurilgan. Mashinani ma’lumot bilan ta’minlash mumkin, ammo algoritmning qanday ishlashi, uning barqarorligi, optimallashuvi, ehtimoliy xatolari va natijalarining ishonchliligi matematik asosni talab qiladi.

Albatta, sun’iy intellekt matematik hisob-kitoblarning bir qismini avtomatlashtiradi. Lekin hisoblashni avtomatlashtirgan bilan matematik fikrlashga ehtiyoj yo‘qolmaydi.

Kelajakda kompyuter hisoblaydi, sun’iy intellekt yordam beradi, ammo qaysi masalani qo‘yish, qaysi modelni tanlash va natijaning to‘g‘riligini baholash insonning matematik tafakkuriga bog‘liq bo‘ladi. Shu ma’noda, sun’iy intellekt matematika uchun raqobatchi emas, balki yangi imkoniyatlarni ochadigan vosita bo‘lishi mumkin.

— Bugungi zamonaviy insonning “matematik tafakkuri” o‘zida nimalarni jamlayapti?

— Men matematik tafakkurni faqat formulalarni bilish deb tushunmayman. U, avvalo, mantiqiy va tizimli fikrlash, muammoni to‘g‘ri qo‘ya bilish, murakkab masalani qismlarga ajratish, sabab va oqibatni ko‘rish, dalil bilan taxminni ajratish, noaniqlik sharoitida qaror qabul qilish qobiliyatidir.

Bugungi inson uchun yana bir muhim xususiyat — abstrakt fikrlash bilan amaliy fikrlashni birlashtira olish.

Matematik tafakkur insonga faqat matematika masalasini yechishda emas, balki hayotdagi murakkab muammolarni tushunishda ham yordam beradi.

— Matematika siz uchun nima?

— Qisqa qilib aytganda, matematika — men uchun tafakkur madaniyati. U menga faqat teoremalar va formulalarni emas, balki murakkab narsa ichida oddiylikni, tartibsizlik ichida qonuniyatni va noma’lumlik ichida mantiqiy yo‘lni izlashni o‘rgatdi. 33 yil institutda ishlab, shunga yana bir bor ishonch hosil qildim: matematiklik — faqat kasb emas. U insonni sabrli, aniq va mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Shu bois, men uchun matematika — ham ilm, ham tafakkur, ham hayot tarzi.

— Matematika va matematik ta’limni rivojlantirish bo‘yicha qanday takliflaringiz bor?

— Bugun mamlakatimizda matematika va matematik ta’limni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratilgan. Endi asosiy vazifa — yaratilgan imkoniyatlardan samarali va to‘liq foydalanish. Shu nuqtai nazardan, matematik olimlarimiz va matematika o‘qituvchilarimiz oldida turgan bir nechta muhim vazifaga to‘xtalib o‘tmoqchiman.

Birinchisi — iqtidorni erta aniqlash va uni to‘g‘ri yo‘naltirish. Matematikaga qiziqishi va qobiliyati yuqori bo‘lgan bolani 15-16 yoshgacha kutib o‘tirmay, maktab davridanoq aniqlashimiz va muntazam rivojlantirishimiz kerak. Buning uchun olimlar, universitet o‘qituvchilari va maktab matematika muallimlari hamkorlikda ishlashi zarur.

Ikkinchisi — matematika o‘qituvchisining kasbiy salohiyatini muntazam oshirish. Kuchli matematik ta’lim, avvalo, salohiyatli o‘qituvchiga bog‘liq. Shuning uchun har bir matematika o‘qituvchisi o‘z bilimini muntazam yangilab borishi, zamonaviy matematik yondashuvlar bilan tanishishi va ilmiy muhit bilan aloqasini uzmasligi kerak. Olimlar esa o‘qituvchilar bilan yaqindan ishlab, ularga zamonaviy matematika va uni o‘qitish metodikasi bo‘yicha ilmiy-uslubiy yordam berishi lozim.

Uchinchisi — maktab, universitet va ilmiy institut o‘rtasida uzluksiz hamkorlikni yo‘lga qo‘yish. Iqtidorli o‘quvchi maktabni tugatgandan keyingina ilmiy muhitga kirib kelmasligi kerak. U maktab davridanoq olimlar va universitet professorlari bilan muloqot qilishi, ilmiy seminarlar va matematika to‘garaklarida ishtirok etishi maqsadga muvofiq.

Shu bilan birga, universitet talabalarini ham ilmiy tadqiqotga erta jalb qilishimiz kerak. Maktab — universitet — institut zanjiri uzluksiz ishlasa, iqtidorli yoshni olim darajasiga olib chiqish jarayonini ancha samarali tashkil eta olamiz.

To‘rtinchisi — ilmiy maktablarni davom ettirish va yangi ilmiy maktablar yaratish. Bir olimning shaxsiy ilmiy yutug‘i, albatta, muhim. Ammo matematikaning uzoq muddatli taraqqiyoti uchun undan ham muhimrog‘i olim atrofida yangi avlod shogirdlarining shakllanishidir.

Shuning uchun har bir tajribali matematik o‘z ilmiy yo‘nalishi bo‘yicha shogirdlar tayyorlashni o‘zining muhim vazifalaridan biri deb bilishi kerak. Bizdagi ilmiy maktablar uzluksiz avlodlar almashinuvi asosida yashashi va rivojlanishi lozim.

Beshinchisi — yosh matematiklarni xalqaro ilmiy muhitga olib kirish. Bugun matematik uchun xalqaro ilmiy muhitga chiqish imkoniyati juda keng. Yosh olimlar xorijiy olimlar bilan qo‘shma tadqiqotlar olib borishi, xalqaro konferensiya va seminarlarda qatnashishi, ilmiy hamkorlik tarmoqlariga kirishi hamda o‘z natijalarini xalqaro darajada taqdim etishi kerak. Bu yerda vazifa faqat maqola sonini ko‘paytirish emas, xalqaro matematika hamjamiyatida yangi g‘oya va yangi natija bilan ishtirok etishdir.

Oltinchisi — matematik tadqiqotlarni zamonaviy amaliy masalalar bilan bog‘lash. Matematikaning fundamental ahamiyati kamaymaydi, aksincha, uning imkoniyati yanada kengayadi. Matematika ta’limida matematik tafakkurni shakllantirishga ko‘proq e’tibor berishimiz kerak. O‘quvchi tayyor formulani bilishi emas, balki muammoni ko‘ra olishi, savol qo‘ya bilishi, mantiqiy fikrlashi va yechim topishga harakat qilishi muhim.

Bugun bizda imkoniyat bor. Endi asosiy vazifa shu imkoniyatni bilimga, bilimni tadqiqotga, tadqiqotni yangi natijaga, yangi natijani esa mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladigan qadriyatga aylantirishdir.

Mulohaza



Bugungi dunyo shiddat bilan o‘zgarayotgan, axborot oqimi inson tafakkuri va dunyoqarashiga har qachongidan ko‘ra kuchliroq ta’sir ko‘rsatayotgan murakkab bir davrda jamiyat xavfsizligi va barqarorligini ta’minlash masalasi faqat huquqiy yoki ma’muriy choralar bilan cheklanib qolmaydi.

MA’RIFAT, ILM VA BAG‘RIKENGLIKKA TAYANGAN YONDASHUV



Ilhom MA’RUPOV,
Din ishlari bo‘yicha qo‘mita raisining maslahatchisi

Zero, jaholatning ildizi ko‘p hollarda bilimsizlik, tor dunyoqarash, axborotni tanqidiy tahlil qila olmaslik, soxta va ishonchli manbalarni ajrata bilmaslik, shuningdek, ijtimoiy muammolar hamda buzg‘unchi g‘oyalarning asl mohiyatini anglamaslik bilan bog‘liq.

Shu nuqtai nazardan, “Jaholatga qarshi ma’rifat” g‘oyasi oddiy shior emas, insonni bilim, mustaqil tafakkur, huquqiy va mediasavodxonlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, bag‘rikenglik hamda ongli tanlov qobiliyati bilan qurollantirishga qaratilgan keng qamrovli yondashuvdir.

Mamlakatimizda diniy-ma’rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning mazmuni ham aynan shu yondashuv bilan uyg‘unlashmoqda. Bu jarayonni shartli ravishda bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan olti yo‘nalishda ko‘rish mumkin: huquqiy kafolat, ma’rifat va ta’lim, ilmiy tadqiqot, profilaktika, konfessiyalararo bag‘rikenglik hamda zamonaviy axborot muhiti bilan ishlash.

Aynan ushbu omillarning uyg‘unligi yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan diniy-ma’rifiy yondashuvning o‘ziga xos jihatlarini belgilab beradi. Diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarning birinchi sharti vijdon erkinligini ta’minlashdir. Inson e’tiqodiga hurmat bilan munosabatda bo‘lish, uning diniy qarashlari bo‘yicha erkin qaror qabul qilishi uchun huquqiy kafolatlar mavjudligi ma’rifiy va bag‘rikeng jamiyatning muhim belgilaridan.

Mamlakatimizda bu boradagi huquqiy baza bosqichma-bosqich takomillashtirib borildi. Xususan, “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi mazkur sohadagi munosabatlarni zamonaviy talablar asosida tartibga solish uchun huquqiy asoslarni yanada mustahkamladi.

Diniy-ma’rifiy sohani takomillashtirishga nisbatan kompleks yondashuv shakllanib, uning huquqiy, institutsional va ilmiy asoslarini qamrab olgan yaxlit tizim bosqichma-bosqich qaror topdi. Bu jarayon diniy-ma’rifiy sohaga munosabat alohida muammolarga javob berishdan ko‘ra, tizimli yondashuv asosida tashkil etilayotganini ko‘rsatadi.

Ajdodlarimiz ilmni inson va jamiyat taraqqiyotining muhim omili sifatida qadrlagan. Shu jihatdan bugungi ma’rifiy yondashuvni tarixiy merosimizdagi ilm va ma’rifat an’analarining zamonaviy davomi sifatida baholash mumkin.

2017-yil 19-sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida Prezidentimiz “Biz muqaddas dinimizni zo‘ravonlik va qon to‘kish bilan bir qatorga qo‘yadiganlarni qat’iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosa qila olmaymiz”, degan edi.

Mazkur yondashuv muhim bir tamoyilni ifodalaydi: zo‘ravonlik va buzg‘unchi g‘oyalarga qarshi kurash qat’iy huquqiy choralar bilan bir qatorda, ularning tarqalishiga zamin yaratuvchi ijtimoiy va ma’rifiy omillarni bartaraf etishni ham qamrab olishi zarur.

Yangi O‘zbekistondagi ma’rifiy yondashuvning yirik amaliy ifodalaridan biri Islom sivilizatsiyasi markazidir. Uning ahamiyatini faqat tarixiy merosni namoyish etuvchi majmua sifatida baholash masalaning mohiyatini to‘liq ochib bera olmaydi. Markazning eng muhim vazifalaridan biri yurtimiz zaminida shakllangan ilmiy, diniy va madaniy merosni chuqur tadqiq qilish, zamonaviy ilmiy muomalaga kiritish, jahon jamoatchiligiga yetkazish hamda mazkur merosni bugunning dolzarb masalalari bilan uzviy bog‘lashdir.

Shu ma’noda, markazning ochilishi nafaqat muhim tarixiy voqea, balki tarixiy merosga munosabatda yangicha yondashuv ifodasidir. Bu o‘rinda ajdodlarimizning ilmga intilish, izlanish va insonparvarlik an’analarini zamonaviy avlodning intellektual salohiyatiga aylantirish, ayniqsa, muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, markaz yangi O‘zbekistondagi keng ko‘lamli ma’rifiy islohotlarning ham ramziy, ham amaliy ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi.



Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy va Bahouddin Naqshband nomidagi xalqaro ilmiy-tadqiqot markazlarining tashkil etilishi zamirida ham ulkan maqsadlar mujassam. Ularning faoliyati faqat boy tarixiy merosimizni muhofaza qilishdan iborat emas. Bugun noyob qo‘lyozma va manbalarni tadqiq etish, ularni ilmiy muomalaga kiritish hamda zamon talablari asosida o‘rganish ushbu markazlarning bosh vazifasiga aylangan. Mazkur jarayon xalqaro ilmiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish bilan birga yurtimizda kuchli tadqiqot maktablarini shakllantirishga ham xizmat qilmoqda.

Ayni markazlarning roli ikki tomonlama ahamiyatga ega: ular bir vaqtning o‘zida ham tarixiy-diniy merosimizni chuqur o‘rganadi, ham jamiyat uchun ishonchli ilmiy manbalarni tayyorlab beradi. Bugun markazlar tomonidan chop etilayotgan kitoblar, ilmiy asarlar va ommabop risolalar bu fikrimizning yorqin dalilidir.

Diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni ta’lim tizimidan ayro tasavvur qilib bo‘lmaydi. Oliy diniy ta’limda magistratura bosqichining joriy etilishi, shuningdek, o‘quv dasturlarining zamonaviy talablar asosida takomillashtirilishi ham ushbu jarayonning muhim qismi.

Diniy ta’lim muassasalarida o‘qitilayotgan fan dasturlarining yangilanishi va yangi avlod o‘quv adabiyotlarining yaratilishi esa, o‘z navbatida, diniy mutaxassislar tayyorlashga qo‘yilayotgan talablarning o‘zgarib borayotganini ko‘rsatadi.

Bugun diniy mutaxassis faqat diniy manbalarni bilish bilan cheklanib qolmasligi kerak. U huquqiy savodxon, zamonaviy axborot muhitini tushunadigan, yoshlar bilan muloqot qila oladigan, ijtimoiy jarayonlarni teran anglaydigan va turli savollarga ilmiy asoslangan javob beradigan yetuk mutaxassis bo‘lishi zarur.

Imom-xatiblarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimining takomillashtirilishi, huquqiy va ijtimoiy-siyosiy fanlar bo‘yicha maxsus modullarning joriy etilishi sohadagi ijobiy sifat o‘zgarishlarining muhim ko‘rinishidir.

Agar inson mustaqil fikrlash, axborotni tanqidiy baholash va dalillarni solishtirish qobiliyatiga ega bo‘lsa, uni soxta axborot va manipulyativ g‘oyalar ta’siriga tushirish qiyinlashadi.

Shu bois, insonning ishonchli va soxta manbalarni ajrata olishi, axborotni tanqidiy baholay bilishi, turli qarashlarni o‘zaro solishtirishi, o‘z huquq va majburiyatlarini chuqur anglashi, boshqa e’tiqod vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lishi hamda qabul qilgan qarorlari uchun mas’uliyat his qilishi juda muhim. Aynan mana shu ko‘nikmalar majmui jamiyatning ma’naviy va intellektual barqarorligini yanada mustahkamlaydi.

Bugun diniy-ma’rifiy ishlar mahalla, ta’lim muassasalari, mehnat jamoalari va yoshlarga yaqinlashtirilgan holda tashkil etilmoqda. Bu jarayonda hududlarning o‘ziga xos xususiyatlari va mahalliy aholining ehtiyojlari to‘liq inobatga olinmoqda. Zero, bir hududda axborot savodxonligi dolzarb masala bo‘lsa, boshqa bir hududda yoshlar bilan ishlash yoki oilaviy-ijtimoiy masalalar ustuvor ahamiyat kasb etishi mumkin.

Ma’rifiy ishlar yagona qolip asosida emas, balki auditoriya va hududning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ma’rifiy ishlarning mazmuni va shaklini joylardagi real ehtiyojlarga moslashtirish, amaliy ta’sirchanligini oshirish imkonini bermoqda.

Diniy-ma’rifiy sohadagi ishlar mazmun va shakl jihatidan ham zamonaviy auditoriya ehtiyojlariga moslashib bormoqda. Ayniqsa, yoshlar bilan ishlash jarayonida faqat tayyor ma’ruzalar bilan cheklanib qolmay, ochiq muloqot, savol-javob, fikr almashish va dalillar asosida xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan yondashuvlarga ustuvor ahamiyat berilmoqda.

Bunday tadbirlarda ishtirokchilarning faol fikr bildirishi, savollar berishi va turli qarashlarni muhokama qilishi uchun barcha imkoniyat yaratilmoqda. Shu bois, ma’rifiy ishlarning samaradorligi faqat qamrov ko‘lami yoki ishtirokchilar soni bilan emas, balki ularda shakllangan bilim, qarash va ko‘nikmalar darajasida ham baholanmoqda.

Yoshlarning axborotni asosan internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali qabul qilishi diniy-ma’rifiy sohada raqamli kontentning ahamiyatini yanada oshiryapti. Shu munosabat bilan mazkur sohada raqamli platformalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali ma’rifiy kontent tarqatish amaliyoti kengayib bormoqda.

Bu jarayonda asosiy e’tibor kontentning soniga emas, balki uning sifati, tushunarliligi va muayyan auditoriya ehtiyojlariga mosligiga qaratilmoqda. Zero, zamonaviy axborot muhitida ma’rifiy kontentning ta’sirchanligi uning qancha ko‘p tarqatilgani bilan birga insonga qanchalik to‘g‘ri va ishonchli axborotni yetkaza olgani bilan ham belgilanadi.

Internetdagi bo‘shliqni, albatta, kimdir to‘ldiradi. Agar ishonchli, ilmiy asoslangan va ma’rifiy kontent yetarli bo‘lmasa, turli soxta talqinlar uchun maydon kengayib ketishi mumkin. Shu ma’noda, auditoriya qayerda bo‘lsa, ma’rifat ham aynan o‘sha yerda bo‘lishi kerak.

Diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarni konfessiyalararo totuvlik va o‘zaro hurmat muhitini shakllantirish jarayonidan ayro tasavvur qilib bo‘lmaydi. Ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali jamiyatda turli e’tiqod vakillarining o‘zaro hurmat va hamjihatlik asosida yashashi ijtimoiy barqarorlikning eng muhim omillaridan.

Shu nuqtai nazardan, konfessiyalar ishi bo‘yicha kengash faoliyati takomillashtirilib, hududiy mexanizmlar rivojlantirilmoqda hamda turli konfessiyalar o‘rtasidagi muloqot va hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan ishlar izchil bajarilmoqda.

Bag‘rikenglik — boshqa insonning huquqlari, e’tiqodi va qarashlariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish madaniyati. Shu ma’noda, turli diniy konfessiyalarning yubileyi, madaniy-ma’rifiy va boshqa jamoatchilik tadbirlarini o‘tkazish borasidagi amaliyot konfessiyalararo muloqot va o‘zaro hamkorlik mexanizmlari mustahkam shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Bunday muloqot muhitining mustahkamlanishi turli e’tiqod vakillari o‘rtasida o‘zaro hurmat va ishonchni kuchaytirishga, jamiyatda hamjihatlik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda.

Amalga oshirilayotgan o‘zgarishlarda fuqarolarning diniy ehtiyojlarini zamonaviy, qulay va qonuniy asosda ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Haj va umra ziyoratlarini tashkil etishda qulayliklar oshirilishi, elektron xizmatlarning joriy qilinishi, diniy ta’lim olish imkoniyatlarining kengayishi, shuningdek, diniy savollarga malakali javob olish imkoniyatining rivojlanishi shular jumlasidan.

Bu jarayonlarda asosiy e’tibor faqat tizim va institutlarning takomillashuviga emas, balki ularning inson uchun yaratayotgan amaliy imkoniyatlariga ham qaratilmoqda. Ya’ni fuqaroning huquqlari, vaqti, turli ehtiyojlari, savollari va ma’naviy talablari islohotlarning muhim mezonlari sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zero, har qanday tizimning samarasi inson hayotini qanchalik yengillashtirib, uning huquq va ehtiyojlarini qay darajada ta’minlayotgani bilan belgilanadi.

Ajdodlarimiz merosini o‘rganishda bosh maqsad faqat ularning nomini takrorlash yoki tarixiy xotirani tiklash bilan cheklanmaydi. Asosiy vazifa ular qoldirgan boy ilmiy meros, an’ana va qadriyatlarni yangi avlodning intellektual salohiyatiga aylantirishdir.

Imom Buxoriy, Imom Moturidiy, Imom Termiziy, Bahouddin Naqshband va boshqa ko‘plab allomalarimizning merosi bugun yangi ilmiy tadqiqotlar obyektiga aylanmoqda. Bu jarayon tarixiy merosimizga munosabatning tubdan ijobiy tomonga o‘zgarayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur jarayonlarni yaxlit tizim sifatida ko‘rsak, yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan yondashuvni shartli ravishda olti asosiy xususiyat bilan ifodalash mumkin.

Birinchidan, huquqiy kafolat. Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar faoliyati uchun huquqiy asoslarni takomillashtirish ma’rifiy muhitning institutsional poydevorini yaratadi.

Ikkinchidan, ma’rifat va ta’lim. Diniy bilimni zamonaviy ta’lim, huquqiy va mediasavodxonlik hamda mustaqil fikrlash ko‘nikmalari bilan uyg‘unlashtirish insonning intellektual immunitetini kuchaytiradi.

Uchinchidan, ilm-fan va tarixiy meros. Buyuk allomalarimiz merosini ilmiy tadqiq etish, qo‘lyozma va manbalarni o‘rganish hamda ularni zamonaviy ilmiy muomalaga kiritish tarixiy xotirani intellektual resursga aylantiradi.

To‘rtinchidan, profilaktika. Radikalizm va ekstremizmga qarshi kurashda huquqiy choralar bilan bir qatorda ta’lim, yoshlar bilan muloqot, ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash va axborot savodxonligiga e’tibor qaratish xavf-xatarlarning ildiz omillarini kamaytirishga qaratilgan.

Beshinchidan, bag‘rikenglik va muloqot. Turli konfessiya vakillarining o‘zaro hurmati, ochiq muloqot va hamkorlik muhitini rivojlantirish ijtimoiy barqarorlikning eng muhim omillaridan.

Oltinchidan, raqamli bilim va ma’rifat. Yoshlar va keng jamoatchilik axborotni asosan raqamli muhitdan olayotgan bugungi sharoitda ishonchli, sifatli va tushunarli ma’rifiy kontent yaratish yangi davr talabiga aylanmoqda.

Aynan ushbu yo‘nalishlarning o‘zaro uyg‘unligi yangi O‘zbekistonda shakllanayotgan yondashuvning asosiy xususiyatlarini belgilab beradi.

Diniy-ma’rifiy sohadagi islohotlarning mazmuniga teran nazar tashlasak, ular bir-biri bilan uzviy bog‘liq jarayonlarni qamrab olganini ko‘ramiz. Bularning barchasini birlashtirib turgan bosh g‘oya esa “Jaholatga qarshi ma’rifat”dir. Uning mazmuni oddiy, ammo strategik ahamiyati juda katta: insonga tayyor fikr berish emas, balki uni mustaqil fikrlay oladigan darajaga yetkazish; bilim bilan qurollantirish; zararli g‘oyalarga qarshi faqat taqiqlar bilan emas, sog‘lom dunyoqarash bilan qarshi turish; shuningdek, tarixni shunchaki eslash emas, undan kelajak uchun intellektual kuch va ozuqa olishdir.

Shu ma’noda, jaholatga qarshi kurashning eng ishonchli yo‘li faqat uning oqibatlari bilan emas, balki sabablari va ildizlari bilan ishlashdir. Bu esa uzoq muddatli yondashuvni talab qiladi. Chunki ma’rifat bir kunda natija bermaydi. Ammo insonda mustaqil tafakkur, bilim va mas’uliyat shakllansa, bu natija jamiyatning uzoq muddatli barqarorligiga xizmat qiladi.

Ma’rifiy ishlar yagona qolip asosida emas, balki auditoriya va hududning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tashkil etilmoqda. Bu esa, o‘z navbatida, ma’rifiy ishlarning mazmuni va shaklini joylardagi real ehtiyojlarga moslashtirish, amaliy ta’sirchanligini oshirish imkonini bermoqda.



“Yangi O‘zbekiston” va “Правда Востока” gazetalari tahririyati” DM

MUASSIS:
O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “SHARQ” NMAK mas’ul.

Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro‘yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. **Buyurtma** G-1046.
29213 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. **Qog‘oz bichimi** A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

Navbatchi muharrir: Azizbek Yusupov
Musahhih: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro‘ziyev

Manzilimiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko‘chasi, 85-uy

Qabulxona: (71) 233-56-33
E’lonlar bo‘limi: (71) 233-70-98

E-mail: info@yuz.uz
Veb-sayt: www.yuz.uz: (71) 233-47-05

Devonxona va ishonch telefoni:
(71) 233-56-60

“SHARQ” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko‘chasi, 41-uy.